

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

RESPUBLIKA O'RTA TIBBIYOT VA FARMATSEVTIKA XODIMLARI
MALAKASINI OSHIRISH VA ULARNI IXTISOSLASHTIRISH MARKAZI
ANDIJON FILIALI

«TASDIQLAYMAN»



Respublika o'rta tibbiyot va
farmatsevtika xodimlari malakasini
oshirish va ularni ixtisoslashtirish
markazi Andijon filiali direktori

G.A.Turaxodjayeva

01 2026 y.

Bilimlar sohasi: *Sog'liqni saqlash*

“TIBBIYOT BRIGADA XAMSHIRALARI”

MALAKA OSHIRISH ISHCHI O‘QUV DASTURI

(o‘qish xajmi 144 kredit)


Andijon-2026 y.

TUZUVChILAR:	
Tojiaxmedova D.I.	Respublika o'rtta tibbiyot va farmatsevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi Andijon filiali o'qituvchisi
Nurmatova M.	Respublika o'rtta tibbiyot va farmatsevt xodimlar malakasini oshirish va ixtisoslashtirish markazi Andijon filiali o'qituvchisi.
TAQRIZChiLAR:	
Babich S.M.	Andijon Davlat Tibbiyot Instituti ijtimoiy gigiyena va sog'liqni saqlashni boshqarish kafedrasida dotsenti t.f.n.
Chiftchi Z.A.	Andijon Davlat Tibbiyot Instituti ijtimoiy gigiyena va sog'liqni saqlashni boshqarish kafedrasida assistenti, OHI yo'nalishi mas'uli.

Ishchi o'quv dasturi Respublika o'rtta tibbiyot va farmatsevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi Andijon filialining uslubiy kengashida ko'rib chiqildi va tasdiqlashga tavsiya etildi

« 6 » 01 2026-y.

bayonnoma № 1

Uslubiy kengash raisi:  G.I.Sodiqova

Ishchi o'quv dasturi Respublika o'rtta tibbiyot va farmatsevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi Andijon filialining Pedagogik kengashida ko'rib chiqildi va tasdiqlashga tavsiya etildi

« 7 » 01 2026-y.

bayonnoma № 1

Pedagogik kengash raisi:  G.A.Turaxodjaeva

Kirish.

Mazkur ishchi o'quv dastur O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilinayotgan Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish kompleks chora-tadbirlari aholiga sifatli tibbiy yordam ko'rsatish va patronajning samarali modellarini joriy etish hamda tibbiy xizmat samaradorligi, sifati, qamrovini oshirish uchun asos bo'lib kelmoqda. Shuningdek, sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash va kasalliklar profilaktikasi sog'liqni saqlash tizimining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi jadal rivojlanayotgan davlatlar safiga kirib, uning barcha jabhalarida keng qamrovli islohotlar olib borilmoqda. Jumladan, birlamchi tibbiy-sanitariya yordami tizimini takomillashtirish yo'li bilan shahar va qishloqlarda oilaviy poliklinikalar tashkil etildi, hamda aholiga qulayliklar yaratildi. Bundan tashqari, Respublikada tibbiy yordam sifatini oshirish va ko'lamini yanada kengaytirish, tibbiy xizmatni samarali yo'lga qo'yish, birlamchi tibbiy sanitariya yordami tizimida xonadonlarga patronaj tashriflari sifatini yanada takomillashtirish maqsadida patronaj hamshiralarni o'qitish belgilandi.

Ushbu ishchi dastur O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025- yil 19-maydagi "Respublikada sog'liqni saqlash tizimini va aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish tamoyillarini takomillashtirish orqali soxani islox qilishni izchil davom ettirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi PF-88-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025- yil 19-maydagi "Sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlarni amalga oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-185 chi sonli qarori, O'z.Resp. SSV ning 2025-yil 20-iyundagi № 175-sonli "Aholiga birlamchi tibbiy-sanitariya yordami ko'rsatish tizimini takomillashtirish to'g'risida" buyrug'ini ijrosini ta'minlash maqsadida birlamchi tibbiy-sanitariya yordami tizimi muassasalari tibbiy brigada patronaj hamshiralarni o'qitish uchun tayyorlandi.

1.1 Maqsad:

O'qish natijasida patronaj hamshiralarning mavjud kompetensiyalarini takomillashtirish va kasbiy faoliyat uchun zarur yangi bilim va ko'nikmalarni egallash va kasbiy darajasini oshirish. Amaliyotda profilaktikaning universal modelidan foydalangan holda unga mos ravishda o'zining kasbiy intilishlarini rivojlantirish. Aholi orasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, tibbiy madaniyatini oshirish.

1.2. Vazifalar:

- amaliyotda sog'liqni saqlash bo'yicha asosiy qonunlarni, amaldagi direktiv hujjatlarni hamshiralarni ish faoliyatida qo'llay bilishni o'rgatish;
- patronaj xizmatini unversal-progressiv model asosida tashkillashtirish;
- onalar va bolalarga kasalliklarni oldini olish bo'yicha patronaj xizmatini ko'rsatish;
- bolalarning rivojlanishi, ularni tarbiyalash san'ati, tarbiyasida uchraydigan muammolar bo'yicha xonadonlarda faoliyat yuritish;

- ota-onalar farovonligi, bola tarbiyasida otani jalb qilish, bolalarni shafqatsiz munosabatlardan himoya qilish, stigma va diskriminatsiyani bartaraf etish;
- ota – ona va farzand o‘rtasidagi bog‘liqlikni rivojlantirish;
- hamkor tashkilotlar bilan ish olib borish;
- tibbiyot brigadalarni tarkibi, maqsadi va vazifalarini bilish;
- aholini mavjud xavf omillaridan kelib chiqib, xavf guruhlariga bo‘lish;
- o‘rta va yuqori xavf guruhlariga kiruvchi aholining belgilangan muddatlarda tibbiy ko‘riklardan o‘tishini ta‘minlash va salomatligini davriy kuzatuvga olish;
- yuqori xavf guruhlariga kiruvchi va mustaqil ravishda tibbiy muassasasiga kela olmaydigan bemorlarni doimiy kuzatuvga olish, hamda xonadonga borgan holda tibbiy xizmat ko‘rsatish;
- tibbiy qo‘rik va davriy kuzatuvlar muddatlarini, maqsadli skrining, ko‘riklar va xonadon patronaj tizimini o‘rgatish;
- antropometrik o‘lchov, tekshiruv ko‘nikmalarini shakllantirish va olingan natijalarni tahlil qilish;
- to‘g‘ri ovqatlanish, jismoniy faollik va zararli odatlar to‘g‘risida maslahat berish asosiy tamoyillarini o‘rgatish;
- bolalarni o‘qitish, salomatligini rivojlantirish va xavfsiz muhit yaratish uchun oilada mavjud imkoniyatlardan ijobiy foydalanish kerakligi yuzasidan tushuntirish ishlarini olib borishga yordam berish;
- xonadonlarga tashrifi davomida patronaj hamshirasi onalar va bolalar salomatligi rivojlanishi bo‘yicha bilim, hamda ko‘nikmalarni taqdim etishi, bolani parvarish qilish borasida ma‘lumotlar berishi;
- aholi o‘rtasida tibbiy madaniyatni oshirish, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali ko‘p tarqalgan kasalliklarni oldini olishga o‘rgatish.

1.3. Ta‘lim oluvchilar toifasi (kontingenti):

Ishchi o‘quv dasturi birlamchi tibbiy–sanitariya yordami muassasalarida faoliyat yurituvchi patronaj hamshiralari, ya‘ni mutaxassisligini tasdiklovchi hujjati bo‘lgan hamshiralarchun mo‘ljallangan.

1.4. O‘quv dasturni o‘zlashtira olish uchun zarur bo‘lgan tinglovchi kompetensiyasi:

- hamshiranining xuquqiy ma‘suliyatlari, bemor xuquqlari, roziligi, rad etishi, asosiy hayotiy ko‘rsatkichlarni o‘rganish;
- aholiga patronaj xizmatini tashkil etishdagi direktiv hujjatlarni o‘rganish;
- aholiga patronaj xizmatini tashkil etishdagi meyoriy hujjatlarni yuritishni bilish;
- tibbiyot psixologiyasi va shaxslararo muloqot ko‘nikmalarini o‘rganish;
- patronaj xizmatini universal-progressiv model asosida tashkillashtirish, xonadonlarda faoliyat yuritish, onalar va bolalarda xavf belgilarini erta aniqlash, kerakli yordam ko‘rsatish, oila va hamkor tashkilotlar bilan ish olib borish;

- ko'rsatiladigan tibbiy yordam samaradorligini kuchaytirish mezonlarini bilish;
- salomatlik ko'rsatkichlarini yaxshilash, tamoyillarini bilish;
- mutaxassisligi bo'yicha chuqur va yangilangan to'liq nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'lgan, uzluksiz o'z malakasini oshirishga tayyor bo'lgan, o'zgaruvchan sharoitlarga tez moslasha oladigan, etika va deontologiya asoslarini bilish va rioya qilish.

1.5. Dasturning dolzarbligi:

O'zbekiston Respublikasida barcha sohalar kabi sog'liqni saqlash sohasida ham amalga oshirilayotgan tizimli va ulkan islohotlar jadal sur'atlar bilan kechmoqda. Ushbu islohotlar doirasida tibbiy yordamning samaradorligi, sifati va ommabopligini oshirish, patronaj xizmati va dispanserizatsiyaning samarali modellarini yaratish. Sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash va kasalliklarni oldini olish, bolalar o'limi va nogironligini kamaytirishga qaratilgan faoliyatni tashkil etish, xususan, ayol va bolaning hayotiga taxdid solayotgan belgilar, ovqatlanish va emlash masalalari bo'yicha xavf omillari aniqlanganda, shoshilinch yordamni ko'rsatish yoki shifokorga yo'llash, yuqumli va yuqumli bo'lmagan kasalliklarni oldini olish bo'yicha tinglovchilar bilimlarini yangilash va mustahkamlashdan iborat.

Ushbu ishchi dastur O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025- yil 19-maydagi "Respublikada sog'liqni saqlash tizimini va aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish tamoyillarini takomillashtirish orqali soxani islox qilishni izchil davom ettirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi PF-88-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-maydagi "Sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlarni amalga oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-185 chi sonli qarori, O'z.Resp. SSV ning 2025-yil 20-iyundagi № 175-sonli "Aholiga birlamchi tibbiy-sanitariya yordami ko'rsatish tizimini takomillashtirish to'g'risida" buyrug'ini ijrosini ta'minlash maqsadida birlamchi tibbiy-sanitariya yordami tizimi muassasalari tibbiy brigada patronaj hamshiralari o'qitish uchun ushbu o'quv dastur tayyorlandi. Dasturni tayyorlashda JSST, YUNISEF xalqaro tashkilotlari tomonidan taqdim etilgan materiallardan foydalanildi.

1.6. Dastur hajmi: 144 kredit (kuniga 6 kreditdan 24 kun).

1.7. O'qish shakli:

o'qitish ishdan ajralgan holda/ajralmagan holda/on/offline o'tkaziladi.

1.8. Mashg'ulotlarni o'tish tartibi: Mashg'ulotlar mavjud vaziyatni inobatga olgan holda/kuniga 6 kreditdan.

1.9. Malaka oshirishdan so'ng: o'quv dasturni tamomlagan va yakuniy attestatsiyani topshirgan tinglovchilarga malaka oshirganligi haqida Davlat talablariga asoslangan sertifikat taqdim etiladi.

2. REJALASHTIRILAYOTGAN TA'LIM NATIJALARI

2.1. Rejalashtirilayotgan ta'lim (natijalari)dan so'ng tinglovchi kompetensiyasi:

Mutaxassisligi bo'yicha malaka oshirish o'quv dasturini o'zlashtirishi natijasida mutaxassislikni xususiyatlaridan kelib chiqib malakaviy xarakteristika bo'yicha yangi umumiy va malakaviy ko'nikmalari takomillashtiriladi, quyidagi kasbiy kompetensiyasi rivojlanadi:

- aholi orasida tibbiy madaniyat, sog'lom turmush tarzi, kasallik rivojlanishining oldini olish borasida profilaktik sanitariya targ'ibot tadbirlarini olib borish;
- sog'liqni saqlash qonunchiligi asoslari va hamshiralik xizmatini tashkil etish bo'yicha meyoriy hujjatlar;
- patronaj xizmatini universal-progressiv model asosida tashkillashtirish;
- onalar va bolalarga kasalliklarni oldini olish bo'yicha patronaj xizmatini ko'rsatish;
- bolalarning rivojlanishi, ularni tarbiyalash san'ati, tarbiyasida uchraydigan muammolar bo'yicha xonadonlarda faoliyat yuritish;
- ota-onalar farovonligi, bola tarbiyasida otani jalb qilish, bolalarni shafqatsiz munosabatlardan ximoya qilish, stigma va diskriminatsiyani bartaraf etish;
- ota – ona va farzand o'rtasidagi bog'liqlikni rivojlantirish;
- hamkor tashkilotlar bilan ish olib borish;
- to'g'ri ovqatlanishni targ'ib qilish, bolalarni o'sish va rivojlanishini nazorat qilish;
- zararli odatlarga qarshi kurashish, sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini singdirish va shakllantirish, shu jumladan o'sib kelayotgan avlodni sog'lomlashtirish, onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish;
- bemorlarga hamshiralik parvarishini tashkil etish, hamshiralik jarayonini boshqarish;
- kasallikni erta va yashirin turlarini, xavf omillarini aniqlash uchun zamonaviy profilaktik ishlarni amalga oshirishdagi kasbiy ko'nikmalari mustahkamlanadi;
- biriktirilgan aholiga eng ko'p uchraydigan kasalliklarni oldini olish va parvarishlash bo'yicha chet el tajribalaridan foydalangan holda sifatli tibbiy xizmat ko'rsatishdagi kasbiy ko'nikmalari takomillashtiriladi;
- bolalar salomatligini mustahkamlash, sog'lomlashtirish, profilaktikasi asoslarini kasallikni erta va yashirin turlarini, xavf omillarini aniqlash uchun zamonaviy birlamchi, ikkilamchi profilaktik ishlarni amalga oshirish;
- nafas a'zolari kasalliklarida tekshirish usullari va tashxis qo'yish;
- antropometriya, tana og'irligi indeksini aniqlash.

3. DASTUR MAZMUNI.

Aholi orasida sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilish, aholining tibbiy va valeologik bilimini oshirish, o'z salomatligiga javobgarlikni oshirish, maqsadli guruhlarda sog'lom turmush tarzi tamoyillariga asoslanib suhbatlar o'tkazish, kasalliklarni profilaktikasini amalga oshirish usullarini tinglovchilarga yetkazish. Aholi orasida yuqumli va yuqumsiz kasalliklarning xavf omillarini aniqlash, chekish va alkogolga qarshi kurash chora-tadbirlarini, shu bilan birga klinik protokollar asosida yuqumsiz kasalliklarni integrallashgan usulda olib borish, aholi salomatlik va fiziologik xolatidan kelib chiqib patronaj xizmatini tashkil etishda hamshiraning vazifalari, universal-progressiv patronaj dasturini samarali qo'llash, o'rta tibbiyot xodimining etika va deontologiyasi bilim va ko'nikmalarini shakllantirish. Qisqa muddatli aralashuvlarda konsultatsiyalar o'tkazishda va

zamonaviy diagnostika usullaridan foydalanishda kompyuter texnologiyasidan foydalanish, aholiga reabilitatsiya va palliativ yordam xizmatini ko'rsatish, qandli diabet kasalligi asoratlari hamshiralik parvarishi va bemorlarda o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalarini hosil etish kabi malakalariga ega bo'lishi ko'zda tutilgan. Undan tashqari dasturda milliy g'oya, sog'liqni saqlash tizimidagi islohatlar, sanitar-epidemiologik qoidalar, patronaj hamshira tomonidan aholiga ko'rsatiladigan muolajalar, yuqumli kasalliklar o'chog'ida olib boriladigan chora tadbirlar, ona va bola salomatligini mustaxkamlashga qaratilgan, zarur xolatlarda bemorlarga kechiktirib bo'lmaydigan tez tibbiy yordam ko'rsatish xaqida aloxida modullar kiritilgan.

“Tibbiyot brigada hamshiralari” mutaxassisligi bo'yicha

ISHCHI O'QUV REJA

№	Modul va mavzular nomi	Kredit	Auditoriya mashg'ulotlari		Seminar	Attestasiya
			Nazariy	Amaliy		
	Kasbiy rivojlantirish moduli	32	16	16		
1.1	1-Modul. Tibbiyot soxasida korrupsiyani oldini olish.	4	4	-		
1.1.1	Sog'liqni saqlash tizimini yanada rivojlantirishning asosiy ustivor yo'nalishlari.	-	2	-		
1.1.2	Tibbiyot sohasida korrupsiyaviy jinoyatlarning yuzaga kelish omillari va javobgarlik masalalari. Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid milliy qonunchilik tahlili va davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari, oldini olishga doir amalga oshirilayotgan ishlar.	-	2	-		
1.2	2-Modul. Tibbiyotda raqamli texnologiyalar.	6	2	4		
1.2.1	Zamonaviy axborot texnologiyalari va ularning hamshiralik amaliyotidagi o'rni.	2	2			
1.2.2	Raqamli hamshiralik amaliyoti-elektron tibbiy yozuvlar, bemor ma'lumotlarini kiritish va tahlil qilish.	2	-	2		
1.2.3	Ma'lumotlar xavfsizligi, sun'iy intellekt va yangi tibbiyot platformasi.	2	-	2		
1.3	4-Modul. Shaxslar o'rtasidagi muloqot va tibbiy maslahat.	6	2	4		
1.3.1	O'rta tibbiyot xodimlarini shaxslararo muloqot ko'nikmalari. Etika va deontologiya .	2	2	-		
1.3.2	Samarali muloqot ko'nikmalari.	2	-	2		
1.3.3	Xozirgi zamon tibbiyotida yatrogeniya muammolari va ularning yechimi.	2	-	2		

1.4	3-Modul. Infekzion nazorat.	6	4	2		
1.4.1	Infekzion nazorat va sanitariya epidemiologiya sohasida qo'llaniladigan meyoriy xujjatlar.	2	2	-		
1.4.2	Karantin va o'ta xavfli yuqumli kasalliklar profilaktikasi. OIV/OITS xaqida tushuncha.	2	2	-		
1.4.3	Shifoxona ichi infeksiyalari profilaktikasi.	2	-	2		
1.5	5-Modul. Sog'lom turmush tarzini shakllantirish mezonlari. Jismoniy faollik.	10	4	6		
1.5.1	Salomatlik tushunchasi. Salomatlik darajasi ko'rsatkichlari.	2	2	-		
1.5.2	Salomatlik indeksini baholash .	2	-	2		
1.5.3	Sog'lom turmush tarzi yo'nalishlari.	2	2	-		
1.5.4	To'g'ri ovqatlanish mezonlari.	2	-	2		
1.5.5	Jismoniy faollik. Asosiy sog'lomlashtiruvchi mashg'ulotlar.	2	-	2		
2.0	Mutaxassislik fanlar moduli.	104	44	60		
2.1	1-Modul. Tibbiyot brigadalarining maqsad va vazifalari.	6	4	2		
2.1.1	Tibbiyot brigadalarining tarkibi, maqsadi va vazifalari. Tibbiy ko'rik va davriy kuzatuvlarni olib borish.	2	2	-		
2.1.2	Maqsadli skrining ko'riklar .	2	2	-		
2.1.3	Antropometrik o'lchovlarni o'tkazish.	2	-	2		
2.2	2-Modul. BTSYO muassasalarida onalar va bolalarga universal-progressiv model bo'yicha xizmat ko'rsatish.	26	16	10		
2.2.1	BTSYO muassasalarida onalar va bolalarga universal-progressiv model bo'dyicha xizmat ko'rsatish.	6	4	2		
1.	Onalar va bolalarga universal-progressiv model bo'dyicha xizmat ko'rsatish.	2	2	-		
2.	Universal - progressiv modelning an'anaviysidan farqi.	2	2	-		
3.	Patronaj hamshiraning kundalik bajaradigan ishlarini rejasini tuzish va yangi tashriflarni rejalashtirish.	2	-	2		
2.2.2	Homilador ayollarda xavf omillarini aniqlash.	6	4	2		
1.	Homilador ayollarni yo'riqnomalar bo'yicha baholash.	2	2	-		
2.	Homilador ayollarni gigiyenasi va ovqatlanishi.	2	2	-		

3.	Havf omillarini aniqlashda yo‘riqnomalar bilan ishlash.	2	-	2		
2.2.3	Chilla davrida yangi tuqqan ayollar va chaqaloqlardagi xavf omillarini aniqlash.	6	4	2		
1.	Yangi tug‘ilgan chaqaloqlar va chilla davridagi ayolning hayotiga xavf soluvchi belgilarni aniqlash.	2	2	-		
2.	Ko‘krak sutining ahamiyati va afzalliklari.	2	2	-		
3.	6 oydan oshgan bolalarni qo‘shimcha ovqatlantirish.	2	-	2		
2.2.4	Tug‘ruqdan keyingi meyoriy tiklanish. Reproduktiv salomatlik.	6	4	2		
1.	Tug‘ruqdan keyingi meyoriy tiklanish.	2	2	-		
2.	Reproduktiv salomatlik va bexatar onalik tamoyillari.	2	2	-		
3.	Hayz faoliyatining buzilishi. Klimakterik yoshda ayol organizmidagi o‘zgarishlar.	2	-	2		
4.	Zamonaviy kontratseptiv vositalar bo‘yicha maslahatlar berish.	-	-	2		
2.3	3-Modul. Bolalar kasalliklarida hamshiralik parvarishi.	12	4	8		
2.3.1	Bolalarda yuqori nafas yo‘llari va havo-tomchi yo‘li orqali yuqadigan kasalliklarning kechishi.	6	2	4		
1.	Bolalarda yuqori nafas yo‘li kasalliklarida hamshiralik parvarishi.	2	2	-		
2.	Bronxopnevmoniyalarda hamshiralik parvarishi	2	-	2		
3.	Toshma bilan kechadigan yuqumli kasalliklarda hamshiralik parvarishi.	2	-	2		
2.3.2	Bolalarda raxit, spazmofiliya va allergik diatezlarda hamshiralik parvarishi.	6	2	4		
1.	Bolalarda raxit kasalligining ilk belgilari, sabablari va profilaktikasi.	2	2	-		
2.	Spazmofiliya va allergik diatezlarda hamshiralik parvarishi.	2	-	2		
3.	Bolalarda allergik diatezlarda hamshiralik parvarishi.	2	-	2		
2.4	4-Modul. Milliy klinik protokollar asosida yuqumli bo‘lmagan kasalliklarni oldini olish.	36	12	24		
2.4.1	Milliy klinik protokollar bo‘yicha nafas olish tizimi a‘zolari kasalliklarida hamshiralik parvarishi.	6	2	4		
1.	Milliy klinik protokollar bo‘yicha nafas olish tizimi a‘zolari kasalliklarida hamshiralik parvarishi.	2	2	-		

2.	Milliy klinik protokol bo'yicha surunkali obstruktiv o'pka kasalligi mavjud bemorlarni olib borish.	2	-	2		
3.	Pikfluometriya, spirometriyadan foydalanish, nafas mashqlarini bajarish.	2	-	2		
2.4.2	Milliy klinik protokol bo'yicha yurak ishemik kasalliklari mavjud bemorlarni olib borish.	6	2	4		
1.	Milliy klinik protokol bo'yicha arterial gipertenziyali bemorlarni olib borish.	2	2	-		
2.	Yurak ishemik kasalliklari, zamonaviy tasnifi. Surunkali YUIK. Stenokardiya va infarkt miokardida hamshiralik parvarishi.	2	-	2		
3.	Arterial qon bosimini o'lchash, pulsni sanash, TVI ni xisoblash, nafas olish sonini sanash.	2	-	2		
2.4.3	Milliy klinik protokol bo'yicha surunkali virusli gepatit (V, S, D) bilan kasallangan bemorlarni olib borish.	6	2	4		
1.	Surunkali virusli gepatit V bilan kasallangan bemorlarni olib borish.	2	2	-		
2.	Surunkali virusli gepatit S, D bilan kasallangan bemorlarni olib borish.	2	-	2		
3.	Surunkali gepatitlarni davolashda diyetoterapiyaning ahamiyati.	2	-	2		
2.4.4	Milliy klinik protokol bo'yicha endokrin tizimi kasalliklarida hamshiralik parvarishi.	6	2	4		
1.	Qandli diabetning zamonaviy ta'rifi, tasnifi. 2-tur qandli diabetning asosiy klinik belgilari.	2	2	-		
2.	Glyukoza miqdorini aniqlash usullari. Individual glyukometrlardan foydalanish. Insulinni xisoblash usuli.	2	-	2		
3.	Bemorlarni reabilitatsiyasi. Diabetik to'piq va uni barvaqt aniqlash.	2	-	2		
2.4.5.	Milliy klinik protokol bo'yicha bronxial astma bilan og'rigan bemorlarni olib borish.	6	2	4		
1.	Bronxial astma kasalligini sabablari, klinik kechishi, oldini olish choralari.	2	2	-		
2.	Spirometriya, pikfloumetriya, pulsoksimetriya. Cho'ntak ingolyatorlari va ulardan foydalanish.	2	2	2		
3.	Bemorlarda instrumental tekshirish usullari. Bemorlarni dispanser kuzatuvini.	2	2	2		

2.4.6	Buyrak va siydik chiqarish a'zolari kasalliklarida hamshiralik parvarishi.	6	2	4		
1.	Piyelonefrit, glomerulonefrit (o'tkir, surunkali) kasalliklarida hamshiralik parvarishi.	2	2	-		
2.	Buyrak tosh kasalliklarida bemorlarni parvarishlash.	2	-	2		
3.	Buyrak va siydik yo'li kasalliklarida bemorlarni zamonaviy davolash usullari.	2	-	2		
2.5	5-Modul. Uy sharoitida reabilitatsiyaning asosiy tamoyillari.	12	4	8		
2.5.1	Bemorlarga palliativ yordam ko'rsatish.	6	2	4		
1.	Palliativ tibbiy yordamning asosiy vazifalari va tamoyillari.	2	2	-		
2.	Og'ir yotgan bemor parvarishiga bo'lgan asosiy talablar.	2	-	2		
3.	Og'ir yotgan bemorlarni parvarishi bo'yicha oilalarga maslahat berish va ko'mak.	2	-	2		
2.5.2	Og'ir yotgan bemorni holatini baholash.	6	2	4		
1.	Bemorni oila a'zolariga ruhiy va ijtimoiy ko'mak berish.	2	2	-		
2.	Og'ir yotgan bemorda yotoq yaralarini oldini olish.	2	-	2		
3.	Og'ir yotgan bemorni ovqatlantirish bo'yicha maslahatlar berish.	2	-	2		
2.6	6-Modul. Gerontololiyada patronajning o'ziga xos xususiyatlari.	6	2	4		
1.	Gerontologiya va geriatriya.	2	2	-		
2.	Qari kishilardagi xos kasalliklarda hamshiralik parvarishi.	2	-	2		
3.	Qari kishilarni parvarishi bo'yicha maslahatlar berish.	2	-	2		
2.7	7-Modul. Favqulodda vaziyatlar va hayot uchun havfli holatlarda birinchi yordam ko'rsatish.	6	2	4		
1.	Favqulodda holatlar tasnifi.	2	2	-		
2.	Favqulodda holatlarda saralash bosqichlari.	2	-	2		
3.	Kechiktirib bo'lmaydigan holatlarda tez tibbiy yordam ko'rsatish.	2	-	2		
3.0	Tanlov fanlar moduli.	4	4	-	4	

4.0	Attestatsiya	4	2	2		4
	JAMI:	144	60	76	4	4

3.2.1 Modul mazmuni

“Tibbiyot brigada hamshiralari” kursi o‘quv modullarining mazmuni.

1.1 Modul: O‘zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati 4 kredit

O‘quv moduliga ajratilgan kredit:	4 kredit
Tinglovchida kasbiy kompetensiyaning shakllanishini ta’minlovchi bilim, ko‘nikmalar	<p>PF-158- “O‘zbekiston 2030” strategiyasi mazmun mohiyati haqida. Tibbiyotdagi islohotlar va korrupsiya nima?</p> <p>Tibbiyotdagi islohotlar – bu sog‘liqni saqlash tizimini modernizatsiya qilish, xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish, moliyaviy va tashkiliy samaradorlikni yaxshilash bo‘yicha amalga oshiriladigan o‘zgarishlar.</p> <p>Misol: elektron sog‘liqni saqlash tizimlari, poliklinika va dorixonalarni raqamlashtirish, diagnostika va davolash standartlarini takomillashtirish.</p> <p>Korrupsiya – bu tibbiyot tizimida qonunga xilof ravishda shaxsiy foyda olish uchun amalga oshiriladigan harakatlar.</p> <p>Misol: noto‘g‘ri retsept yozish, tibbiy xizmat uchun ortiqcha to‘lov, shifokor tomonidan bemorning manfaatlarini e’tiborsiz qoldirish.</p> <p>Tibbiyot mutaxassisi uchun bu ikki jihatni tushunish va ularga qarshi samarali kurashish kompetensiya talab qiladi.</p> <p>2. Kompetensiya tushunchasi</p> <p>Kompetensiya – bu muayyan faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malaka majmui.</p> <p>Tibbiyotdagi islohotlar va korrupsiya bo‘yicha zarur kompetensiyalar</p> <p>A) Bilim kompetensiyalari</p> <p>Tibbiyot tizimidagi islohotlar, ularning maqsad va prinsiplarini bilish</p> <p>Sog‘liqni saqlash qonunchiligi va etika normalarini tushunish</p> <p>Korrupsiyaning turlari va oqibatlarini bilish</p> <p>B) Amaliy ko‘nikmalar</p> <p>Sog‘liqni saqlash jarayonlarini samarali va shaffof boshqarish</p>

	<p>Resurslardan tejamkor va qonuniy foydalanish Korrupsiya holatlarini aniqlash va ularga munosabat bildirish C) Analitik va qaror qabul qilish kompetensiyalari Tibbiyot jarayonlarida islohotlarni baholash Korrupsiya xavfini aniqlash va oldini olish strategiyasini ishlab chiqish Qaror qabul qilishda axloqiy va qonuniy asoslarni hisobga olish D) Kommunikativ kompetensiyalar Bemorlar, jamoa va rahbariyat bilan shaffof va samarali muloqot qilish Korrupsiyaga qarshi tashabbuslarni targ'ib qilish Axborot va trening orqali xodimlarni islohotlar va etikaga o'rgatish E) Shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalar Axloqiy prinsiplarni saqlash Javobgarlik va fidoyilik Sog'liqni saqlash tizimini shaffof va adolatli qilishga intilish</p>
<p>O'quv moduli yakunida tinglovchi bilishi lozim:</p>	<p>1. Sovg'alar va ishbilarmonlik mehmondo'stligi bilan bog'liq korrupsiyaviy xavf-xatarlar:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Qachon sovg'a berish yoki qabul qilish qonunga zid va korrupsiya sifatida baholanishi mumkinligini; • Qonuniy ishbilarmonlik munosabatlari bilan shaxsiy manfaat o'rtasidagi farqni; • Qonun va ichki hujjatlarda belgilangan sovg'alarni qabul qilish/bosh tortish qoidalarini; • Sovg'a yoki mehmondo'stlik orqali ta'sir o'tkazish holatlari bilan bog'liq jiddiy xavf-xatarlarni. • Uchinchi shaxslar orqali pul yoki sovg'a qabul qilish kabi yashirin xavflarni aniqlashni. <p>2. Korrupsiyaviy harakatlar tushunchasi va ularning turlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Korrupsiyaviy xatti-harakatlar (pora berish/olish, suiste'mol qilish, manfaatlar to'qnashuvi, soxta hujjat tayyorlash va h.k.) nima ekanini; • Davlat xizmatchilari, tibbiyot xodimlari va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan amalga oshirilishi mumkin bo'lgan korrupsiyaviy harakatlar turlari. <p>3. Korrupsiyaviy harakatlar uchun intizomiy javobgarlik:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Qonun va ichki meyoriy hujjatlarga ko'ra xodimlar tomonidan sodir etilgan intizomiy buzilishlarni; • Intizomiy choralar (hayfsan, lavozimdan ozod etish,

	<p>tanbeh va h.k.) qanday holatlarda qo'llanilishini;</p> <ul style="list-style-type: none"> • Xizmat tekshiruvi, intizomiy ish yuritish va qaror qabul qilish tartibini. <p>4. Korrupsiyaviy harakatlar uchun jinoiy javobgarlik:</p> <ul style="list-style-type: none"> • O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida belgilangan korrupsiya bilan bog'liq moddalar (210-modda – pora berish, 211-modda – pora olish, 205-modda – hokimiyat yoki mansab vakolatini suiste'mol qilish va b.); • Jinoyat tarkibi, javobgarlik turlari va jazo choralari (jarima, ozodlikdan mahrum etish va h.k.); • Aybdor shaxslarga nisbatan amaliyotda qanday jazo qo'llanilishi mumkinligi.
<p>O'quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:</p>	<p>1. Sovg'alar va mehmondo'stlik bilan bog'liq xatarlarni baholash va to'g'ri munosabatda bo'lish ko'nikmasi</p> <ul style="list-style-type: none"> • Qonuniy va noqonuniy sovg'a/mehmondo'stlik o'rtasidagi farqni anglash; • Sovg'a yoki xizmat qabul qilishdan bosh tortish yuzasidan to'g'ri qaror qabul qilish; • Ishbilarmonlik munosabatlarida xolislik va kasb etikasiga amal qilish. <p>2. Fuqarolar bilan tozalik va shaffoflikka asoslangan munosabat o'rnatish ko'nikmasi</p> <ul style="list-style-type: none"> • O'zaro munosabatlarda xizmat vazifalariga tayanish, shaxsiy manfaatlardan qochish; • Kontragentlar bilan kelishuvlarda korrupsiya xavfini oldindan ko'ra bilish; • Tashqi ta'sirlarga moyillikdan saqlanish va qarorlarni mustaqil qabul qilish. <p>3. Hujjatlar ekspertizasi va ijrosini xolis va shaffof amalga oshirish ko'nikmasi</p> <ul style="list-style-type: none"> • Hujjatlar bilan ishlashda faktlar va dalillarga tayanish; • Ijro nazorati jarayonida "shaxsiy munosabatlar" emas, qonun va reglamentlarga asoslanish; • Hujjatlar orqali manfaatli tarafni qo'llab-quvvatlash xavfini aniqlash va undan saqlanish. <p>4. Korrupsiyaviy harakatlar to'g'risida xabardor qilish ko'nikmasi</p> <ul style="list-style-type: none"> • Korrupsiya holatlarini qanday va qayerga xabar qilishni aniq bilish; • Xabar berishdagi anonimlik, himoya va huquqiy kafolatlardan xabardor bo'lish; • Xabar mazmunini aniq, asosli va ishonchli tarzda shakllantirish.

	<p>5. Qonunga muvofiq murojaat qilish va xabar berish ko'nikmasi Korrupsiya holatlari yuzaga kelganda qanday organlarga, qanday tartibda murojaat qilishni bilish;</p>
<p>O'quv moduli mazmuni:</p>	<p>Korrupsiya tushunchasi va uning turlari haqida bilim berish; Milliy va xalqaro qonunchilikni tahlil qilish; Korrupsiyaga qarshi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini o'rganish; Talabalarda huquqiy madaniyatni shakllantirish; Amaliy holatlar tahlili asosida huquqiy fikrlashni rivojlantirish.</p> <p>1. Korrupsiya tushunchasi – Korrupsiya nima ekanligi, uning ta'rifi, mohiyati va kelib chiqish sabablari; – Korrupsiyaning asosiy turlari: pora olish va berish, xizmat mavqeidan suiiste'mol qilish, manfaatlar to'qnashuvi va h.k.</p> <p>2. Milliy qonunchilik asoslari – “Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi Qonunning asosiy normalari; – O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksdagi korrupsiyaga oid moddalar; – Korrupsiyaga qarshi Milliy strategiya va dasturlar mazmuni.</p> <p>3. Davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari – Korrupsiyaga qarshi davlat siyosatining maqsadlari va vazifalari; – Hukumat organlari va jamoatchilikning bu sohadagi o'rni; – Ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash orqali korrupsiyani kamaytirish usullari.</p> <p>4. Huquqiy madaniyat va ong – Korrupsiyaning jamiyatga va davlatga keltiruvchi zararlari haqida tushuncha; – Fuqarolarning huquqiy bilimi va mas'uliyatining ahamiyati; – Etik meyorlarga amal qilish va halollikning ahamiyati.</p> <p>5. Amaliy misollar tahlili orqali bilimlarni mustahkamlash – Real hayotdagi korrupsiya holatlarini tahlil qilish; – Ularni huquqiy nuqtai nazardan baholash; – Qonuniy va samarali yechimlar taklif qilish qobiliyatini rivojlantirish.</p> <p>Tibbiyot sohasida korrupsiyaviy jinoyatlar tushunchasi – Pora olish va berish, xizmat mavqeidan suiiste'mol qilish, dori vositalari bilan bog'liq jinoyatlar.</p> <p>2. Korrupsiyaviy jinoyatlarning asosiy sabablari</p>

	<p>– Nazoratning sustligi, tizimdagi shaffoflik yetishmasligi, huquqiy madaniyat pastligi, jamiyatda jazosizlik hissi.</p> <p>3. Ichki va tashqi omillar</p> <p>– Tibbiyot muassasalaridagi tashkiliy kamchiliklar;</p> <p>– Aholining korrupsiyaga nisbatan muhosabati.</p> <p>4. Korrupsiya uchun javobgarlik turlari</p> <p>– Jinoiy javobgarlik: Jinoiyat kodeksining 210, 211, 212-moddalari;</p> <p>– Ma'muriy va intizomiy javobgarlik: jarima, ishdan bo'shatish, ogohlantirish.</p>
<p>1. PF-158-son 11.09.2023y. "O'zbekiston-2030" strategiyasi</p> <p>2. O'zbekiston Respublikasining 03.01.2017 yildagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'RQ-419-sonli Qonuni // [Elektron manba]. URL: https://lex.uz/docs/3088008.</p> <p>3. O'zbekiston Respublikasining Jinoiyat kodeksi // [Elektron manba]. URL: https://lex.uz/docs/111453.</p> <p>4. O'zbekiston Respublikasining Jinoiyat-protsessual kodeksi // [Elektron manba]. URL: https://www.lex.uz/acts/111460.</p> <p>5. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi // [Elektron manba]. URL: https://lex.uz/docs/97664.</p> <p>6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.02.2017 yildagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2752-sonli Qarori [Elektron manba]. URL: https://lex.uz/docs/3105125.</p> <p>Elektron ta'lim resurslari:</p> <p>- www.minzdrav.uz–</p> <p>www.gov.uz</p> <p>www.press-service.uz</p> <p>www.parlament.gov.uz</p> <p>- www.uza.uz</p> <p>- www.cbu.uz–</p> <p>- www.lex.uz</p> <p>- www.ziyonet.uz</p>	

1.2. Modul: Tibbiyotda raqamli texnologiyalar

O‘quv moduliga ajratilgan kredit:	6 kredit
<p>Tinglovchida kasbiy kompetensiyaning shakllanishini ta’minlovchi bilim, ko’nikmalar</p>	<p>Tibbiyotda raqamli texnologiyalar bo‘yicha zarur kompetensiyalar</p> <p>A) Bilim kompetensiyalari Raqamli texnologiyalar va ularning tibbiyotdagi qo‘llanilishini bilish Elektron sog‘liqni saqlash tizimi (EHR/EMR) va telemeditsina printsiplarini tushunish Ma’lumot xavfsizligi va bemor maxfiyligini himoya qilish qonunchiligini bilish AI va diagnostika dasturlarining asosiy ishlash printsiplari</p> <p>B) Amaliy ko’nikmalar Elektron sog‘liqni saqlash tizimidan samarali foydalanish Telemeditsina orqali bemorlar bilan masofaviy konsultatsiya o‘tkazish Raqamli diagnostika vositalarini ishlatish (masalan, laboratoriya natijalarini tahlil qilish) Ma’lumotlarni xavfsiz saqlash va uzatish</p> <p>C) Analitik va qaror qabul qilish kompetensiyalari Raqamli ma’lumotlardan tahlil qilish va xulosalar chiqarish Diagnostika va davolash bo‘yicha qarorlarni AI va boshqa raqamli vositalardan foydalangan holda qabul qilish Ma’lumotlar xavfsizligi va etik cheklovlarni hisobga olish</p> <p>D) Kommunikativ kompetensiyalar Bemorlar va hamkasblarga raqamli texnologiyalarni tushuntirish Telemeditsina konsultatsiyalarida aniq va samarali muloqot qilish Raqamli tizimlar bo‘yicha jamoa bilan hamkorlik qilish</p>
<p>O‘quv moduli yakunida tinglovchi bilishi lozim:</p>	<ul style="list-style-type: none"> • Kompyuterga axborot kiritish va axborot olish qoidalarini; • kompyuterni tuzilishi to‘g‘risida qisqacha ma’lumotni, kompyuterning foydali va zararli tomonlarini, kompyuterda ishlash jarayonida sanitariya qoidalariga rioya qilishni;

	<ul style="list-style-type: none"> • tibbiyotda zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalari bilan ishlashni; • sogʻlom jamiyat qurishda axborotlashtirishning oʻrnini; • sogʻliqni saqlash tizimini axborotlashtirishda jahon tajribalarini; • axborotlarga ishlov berish, kiritish va chiqarish qurilmalari va ularning tavsifini; • tibbiyotda aloqa va kommunikatsiya vositalarini; • maʼlumotlarni saqlash, qayta ishlash va uzatish; • xozirgi kunda tibbiyotda informatsion texnologiyalari sohasi rivojlanib kelmoqda-tibbiyot xodimlari uchun planshetlardan foydalanib, <i>online</i>-registratsiya qilish va ulardan foydalana olishi.
<p>Oʻquv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:</p>	<ul style="list-style-type: none"> • kompyuter texnikasi bilan ishlashda texnika havfsizligini; • dasturlar bilan ishlashni; • maʼlumotlar bazasi yaratish, ular ustida ishlashni va dasturlash asoslarini; • kompyuter grafik usullaridan foydalana olishni; • tibbiy axborotlar almashinuvi va uni izlashda internet tarmogʻida ishlashni; • elektron pochta dasturi bilan ishlashni; • AKT sogʻliqni saqlash tizimida qoʻllashni.
<p>Oʻquv moduli mazmuni:</p>	<p>Tibbiyot sohasida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish. Tibbiyotda qoʻllanilayotgan zamonaviy axborot texnologiyasi qurilmalarining dasturiy va texnik taʼminoti toʻgʻrisida nazariy va amaliy bilimlar Tibbiy statistik maʼlumotlarni toʻgʻri tahlil qilish va ulardan kasallikning oldini olish yoki davolashda qoʻllash. Axborot texnologiyalaridan foydalanish borasida amaliy koʻnikmalarga ega boʻlish, internet tarmogʻida ishlash, axborot qidirish va ulardan foydalanish, tibbiyot axborot tizimlari xususiyatlari, maʼlumotlar bazasini tashkil etish, ekspert tizimlari va axborot xavfsizligi asoslarini bilish.</p>

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1.O.N.Djurayev Axborot tizimlari va texnologiyalari (tarmoqlar va sohalar buyicha) Toshkent 2020y

2.Aminov S.M “Axborot kommunikatsion texnologiyalar” 2020 y

3.Tursunov, Nazarov “Ta’limda axborot texnologiyalari” 2021 y

4.Ayupov Ravshan Hamdamovich “Ta’limda axborot texnologiyalari” TDPU, 2020 y

5. Informatika asoslari

Mualliflar: M. Aripov, A. Haydarov

Yuklab olish:

Informatika asoslari PDF

(https://uzsmart.uz/kitoblar/view/6551?utm_source=chatgpt.com)

6. Informatika va axborot texnologiyalari

Muallif: Z.S. Abdullayev

7. Kompyuter savodxonligi kitobchasi

Yuklab olish:

Kompyuter savodxonligi PDF(https://pdfbox.uz/books/uzbek/11329-kompyuter-savodxonligi-kitobchasi?utm_source=chatgpt.com)

8. Kompyuterli va raqamli texnologiyalar

Mualliflar: Hoshimov, Tulyaganov

9. Informatika (klassik darslik)

Muallif: N.V. Makarova

Elektron ta’lim resurslari:

1. DMED haqida asosiy tushuncha ([Kapital.uz](#))

2. O‘zbekcha tayyor adabiyotlar (PDF / DOC) ([soff.uz](#))

2. DMED bo‘yicha test savollar ([Hujjat24](#))

1.3. Modul. Shaxslar o‘rtasidagi muloqat va tibbiy maslahat

O‘quv moduliga ajratilgan kredit:	6 kredit
O‘quv moduli mazmuni:	Jamiyat va bemorning salomatligi yo‘lida halol mehnat qilish, har qanday sharoitda ham tibbiy yordam ko‘rsatish. Bemorga diqqat e’tibor va g‘amxo‘rlik bilan munosabatda bo‘lish va o‘zining barcha xatti-harakatlarida yuksak insoniy qoidalarga rioya qilish. Jamoada, individual va turli guruhlarda shaxslararo muloqot madaniyati. Kasbning oliyjanob an‘analarini

	<p>saqlash. Zamonaviy tibbiyot amaliyotida sezilarli e'tibor tibbiyot xodimlarining kasbiy ko'nikmalariga, bemorlar bilan ularning gender va madaniy xususiyatlarini hisobga olgan holda muloqot qilish qobiliyatiga qaratilmoqda. Genderning salomatlikka ta'siri. Genderga sezgir tibbiy maslahat va aloqa to'g'risida tushuncha. Ichki madaniyat qoidalari, intizomga rioya qilish. Jamoat mulki tushunchasi va unga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish. Hamjihatlik va kollegiallik tuyg'ulariga rioya qilish. Neytral va xavfsiz muhitni yaratish. Salbiy munosabat va fikrlardan qochish. Tibbiy maslahatni hurmat va e'tibor bilan boshlash. Faol tinglash va empatiya Bemorning ehtiyojlarini baholash. Shaxsiy chegaralarni hurmat qilish. Tushunarli tildan foydalanish. Tibbiyot xodimining bemor bilan muloqot qilish qobiliyati. Muloqot ko'nikmalarining turlari va ularning bir-biri bilan o'zaro bog'liqligi. Tibbiy maslahatning asosiy tuzilishi va ko'nikmalarning o'zaro bog'liqligi. Tibbiy maslahatni tartiblashtirish. Noverbal tildan foydalanish. O'zaro tushunishga erishish: bemorning holatini inobatga olish. Samarali muloqotning xususiyatlari</p>
<p>O'quv moduli yakunida tinglovchi bilishi lozim:</p>	<ul style="list-style-type: none"> • Insoniylik tamoyillariga, kasbiy standartlarga va tibbiyot ilmining zamonaviy talablariga javob beradigan sifatli tibbiy yordam ko'rsatish tamoyillarini; • klinik amaliyotda dalillarga asoslangan parvarish tamoyillarini; • tibbiyot xodimining asosiy huquq, burch va majburiyatlarini; • bemorning ehtiyojlariga nisbatan sabrli va xushmuomalali bo'lishi, bemor bilan o'zaro sokin va ishonchli munosabat o'rnatishni; • bemorga diqqat e'tibor va g'amxo'rlik bilan munosabatda bo'lish va o'zining barcha xatti-harakatlarida yuksak insoniy qoidalarga rioya qilishni; • jamoada, individual va turli guruhlarda shaxslararo muloqot madaniyatini; • ichki madaniyat qoidalari, intizomga rioya qilishni. • neytral va xavfsiz muhitni yaratishni. • salbiy munosabat va fikrlardan qochishni. • tibbiy maslahatni hurmat va e'tibor bilan boshlashni • samarali muloqotning xususiyatlarini

	<ul style="list-style-type: none"> • verbal va noverbal ko‘nikmalarni
O‘quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:	<ul style="list-style-type: none"> • Kasbning oliyjanob an‘analarini saqlashni • bemorlar va ularga tegishli ma‘lumotlarning maxfiyligiga hurmat bilan munosabatda bo‘lish ko‘nikmalarini; • bemorning shaxsiy hududiga kirishni minimallashtiradigan hamshiralik amaliyoti standartlariga amal qilishni; • bemor, shaxslararo o‘zaro muloqot qilish ko‘nikmalarini; • bemorning ehtiyojlarini hisobga olib, o‘zaro sokin va ishonchli munosabat o‘rnatish usullarini. • bemorning ehtiyojlarini baholashni. • shaxsiy chegaralarni hurmat qilishni. • tushunarli tildan foydalanishni
Adabiyotlar: 1.Q.Inomov “ Hamshiralik ishi asoslari” Toshkent 2009 yil 2. A.G.Gadayev ”Ichki kasalliklar propedevtikasi” darslik Toshkent 2023yil Elektron ta’lim resurslari http://www.edu.uz http://www.pedagog.uz www.tma.uz, www.lex.uz	

1.4.Modul: Infekcion nazorat

O‘quv moduliga ajratilgan kredit:	6 kredit
Tinglovchida kasbiy kompetensiyani ng shakllanishini ta’minlovchi bilim, ko‘nikmalar	<p style="text-align: center;">INFEKSION NAZORATDA KOMPETENSIYA</p> <p>Bu — tibbiyot xodimi yoki mutaxassisning bilim, ko‘nikma va mas’uliyatli yondashuvi majmui.</p> <p>Kompetensiya quyidagilarni o‘z ichiga oladi:</p> <p>Bilimlar:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Infekcion kasalliklar yuqish yo‘llari • Sanitariya-epidemiologik meyorlar • Dezinfeksiya va sterilizatsiya turlari <p>Amaliy ko‘nikmalar:</p> <ul style="list-style-type: none"> • To‘g‘ri qo‘l yuvish texnikasi • Himoya vositalarini to‘g‘ri kiyish va yechish • Asboblarni xavfsiz qayta ishlash <p>Mas’uliyat va xulq-atvor:</p>

	<ul style="list-style-type: none"> • Qoidalarga qat'iy rioya qilish • Infeksiya xavfini baholay olish • Favqulodda holatlarda tezkor choralar ko'rish
O'quv moduli yakunida tinglovchi bilishi lozim:	<ul style="list-style-type: none"> • sanitariya qoidalari, normalari va gigiena normativlarini (SanQvaN); • davolash-profilaktika muassasalariga qo'yiladigan sanitar talablarni va "infeksion nazorat komissiyasi" ish faoliyatini; • sanitar meyor va qoidalar bo'yicha amaldagi hujjatlarni; • OIV/OITSGa oid normativ hujjatlarni; • OIV etiologiya va patogenezini, epidemiologiyasini; • OIV yuqish yo'llari, tekshirish usullari, klinikasi va bemorlar parvarishini; • kasalliklardan (COVID -19) himoyalaniş tamoyillarini.
O'quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:	<ul style="list-style-type: none"> • shifoxona ichi infeksiyasini oldini olishda SanQvaMlarga rioya qilishni; • muolajalar vaqtida avariya holatlari yuzaga kelishini oldini olishni; • avariya holatlari yuzaga kelganda o'tkaziladigan chora-tadbirlar yig'indisini; • o'ta xavfli va karantin infeksiyalarda epidemiyaga qarshi o'tkaziladigan chora-tadbirlarni; • himoya kiyimlari va ulardan foydalanish tartibini. • qo'llarga gigienik ishlov berish usullari, texnikasi va qo'llarni yuvish tartibini;
O'quv moduli mazmuni:	<p>Davolash profilaktika muassasalarida shifoxona ichi infeksiyasini oldini olish borasida qabul qilingan normativ hujjatlar. Shifoxona ichi infeksiyasini oldini olishda akusherkalarning vazifalari. Tibbiy muolajalar orqali yuqadigan kasalliklarni oldini olish. Yuqumli kasalliklar (o'ta havfli va karantin infeksiyalar, OITS)ni tarqalishini oldini olish. OIV/OITSGa oid normativ hujjatlar. OIV etiologiya va patogenezini, epidemiologiyasi. OIV/OITS infeksiyasi. Kasalliklardan (COVID19) himoyalaniş tamoyillari. Himoya kiyimlari va ulardan foydalanish tartibi.</p>
<p>Tavsiya etiladigan adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. San. Q va M. № 0342/17 " DPMLarda shifoxona ichi infeksiyalari profilaktikasi" 10 yanvar 2017 y. 2. San. Q va M. № 03-17-15."O'zbek.Res.davolash- profilaktika muassasalarida chiqindilarni yig'ish,saqlash va yo'q qilish sanitariya qoidalari va meyorlari" 3.V.N.Turaqulov,X.A.Raxmatova.N.A.Avezova."Yuqumli kasalliklarda xamshiralik parvarishi"O'quv qo'llanma.Navoi nashriyot.2019yil. 4.F.I Salomova, Sh.T Iskandarova "Gigiyena. Tibbiy ekologiya" Toshkent-2020 	

5.S.B. Israilova “Sanitariya epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati” o’quv qo’llanma. Turon nashr. Samarqand-2026 <https://e-library.sammu.uz/uz/book/5400>

6.COVID-19 bo’yicha milliy qo’llanma JSST. O‘zbekiston Sog‘liqni saqlash vazirligi. 2020 yil 26 mart.

7.O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi sayti

→ **rasmiy sanitariya me’yorlari va hujjatlar**

8.ZiyoNET

→ bepul darsliklar va o’quv qo’llanmalar

Elektron ta’lim resurslari:

<http://www.edu.uz>

<http://www.pedagog.uz>

www.tma.uz,

www.lex.uz

<https://ru.pinterest.com/vkhamidov/>

1.5. Modul: Sog‘lom turmush tarzini shakllantirish mezonlari. Jismoniy faollik.

O‘quv moduliga ajratilgan kredit:	10 kredit
Tinglovchida kasbiy kompetensiyaning shakllanishini ta’minlovchi bilim, ko’nikmalar	<p>JISMONIY FAOLLIK VA SOG‘LOM TURMUSHDA KOMPETENSIYALAR</p> <p>Bu sohadagi kompetensiyalar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:</p> <ul style="list-style-type: none">• Sog‘lom turmush qoidalari bo‘yicha bilimga ega bo‘lish• Shaxsiy sog‘liqni baholay olish va nazorat qilish• To‘g‘ri ovqatlanish rejasini tuzish ko‘nikmasi• Jismoniy mashqlarni xavfsiz va samarali bajarish• Sog‘lom hayot tarzini boshqalarga targ‘ib qila olish
O‘quv moduli yakunida tinglovchi bilishi lozim:	<ul style="list-style-type: none">• Salomatlik tushunchasi, salomatlik darajasi ko‘rsatkichlarini;• sog‘lom turmush tarzini shakllantirish tamoyillarini;• salomatlikka ta’sir etuvchi omillar:• irsiy, ekologik tibbiy va hayot tarzi va salomatlik mexanizmlarini bilishi, tahlil qila olishni;• atrof muhit va ekologik omillarning salomatlikka ta’sirini;• salomatlikni mustahkamlashga qaratilgan standart va

	<p>algoritmnlarni;</p> <ul style="list-style-type: none"> • to‘g‘ri ovqatlanish prinsiplarini; • kun tartibini to‘g‘ri tashkil etishni; • jismoniy faollik va chiniqishning • salomatlikka ta‘sirini; • zararli odatlarning organizmga ta‘sirini; • tibbiy ko‘riklarni tashkil etish va aholini • jalb etishni; • sog‘lom turmush tarzini maqsadli guruhlar o‘rtasida shakllantirish va targ‘ib etishni;
<p>O‘quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:</p>	<ul style="list-style-type: none"> • Aholining turli guruhlarida (yoshiga, mehnat turiga, jinsiga qarab) psixoemotsional holatni aniqlashni; • sog‘lom turmush tarzini qo‘llab quvvatlashda maqsadli guruhlarini shakllantirish va ular o‘rtasida suhbatlar olib borishni; • individual salomatlik va uni asrash yo‘llarini; • jismoniy faollik, to‘g‘ri ovqatlanish prinsiplari, zararli odatlarning salomatlikka ta‘siri mavzularida aholi o‘rtasida tadbirlar tashkil etishni; • maqsadli guruhlar o‘rtasida targ‘ibot ishlarini olib borishni; • inson salomatligini saqlash va tiklashda jismoniy tarbiya mashqlari kompleksini; • jismoniy mashqlarni har xil yoshdagi sog‘lom odamlarda va bemorlarda qo‘llash uslublarini; • Skandinaviya yurish usullarini.
<p>O‘quv moduli mazmuni:</p>	<p>Sog‘lom turmush tarzini tashkil etish asoslari. Sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda maqsadli guruhlar bilan ishlash. Atrof muhit va ekologik omillarning salomatlikka ta‘siri, to‘g‘ri ovqatlanish prinsiplari, kun tartibini to‘g‘ri tashkil etish, jismoniy faollik va chiniqishning salomatlikdagi ahamiyati, zararli odatlarning organizmga ta‘siri, tibbiy ko‘riklarni tashkil etish va aholini jalb etish.</p>
<p>Adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-noyabrdagi “Aholining sog‘lom ovqatlanishini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ 4887-sonli qarori. 2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 18- 	

dekabrdagi “Yuqumli bo‘lmagan kasalliklarning profilaktikasini, sog‘lom turmush tarzini qo‘llab –quvvatlash va aholining jismoniy faolligi darajasini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ 4063-sonli qarori.

3. Sh.Zokirxo‘jayev, A.Gadoyev, M.Turimbetova “Dietologiya ” 2023-yil
4. A.Gadayev, L.Musadjanova, N.Pirmatova, N.Mo‘minova “Shifobaxsh taomlar ” 2017-yil
5. Sh.Qurbonov,A.Qurbonov “To‘g‘ri ovqatlanish qoidalar ”2014 yil

Elektron adabiyotlar va ilmiy maqolalar


- A.Hushdan ketish
- B.Quruq yo'tal
- S.Ko'krakda og'riq
- D.Tomoq og'rihi

49.Pnevmoniyada ko'p uchraydigan belgi?

- A.Burun bitishi
- B.Istima va ko'krakda og'riq
- S.Ovoz xirillashi
- D.Allergik qichishish

50.Laringitning asosiy klinik belgilari qaysilar?

- A.Balg'amlar ko'payadi
- B.Ovoz xirillaydi
- S.Yuqori harorat
- D.Ko'z yoshlanishi

VARIANT №3

1. Allergik rinitda quyidagilardan qaysi biri ko‘proq uchraydi?

- A. Istim
- B. Sarg‘ish balg‘am
- S. Aksirish va qichishish
- D. Tomoqda og‘riq

2. Bronxial astma xuruji vaqtida eng xos belgi?

- A. Burun bitishi
- B. Quloq og‘rishi
- S. Hushtakli nafas olish
- D. Ovoz yo‘qolishi

3. Sinusit shubhasida qaysi belgi muhim?

- A. Peshonada og‘riq va burun bitishi
- B. Quruq yo‘tal
- S. Qorin og‘rishi
- D. Tomoqda qizarish

4. Tonzillitga qaysi belgi xos?

- A. Ovoz xirillashi
- B. Bodomcha bezlardagi qoplamalar
- S. Qichishish
- D. Burundan oqma

5. Traxeitda qaysi belgi eng ko‘p uchraydi?

- A. Og‘riqli quruq yo‘tal
- B. Keskin nafas qisishi
- S. Ko‘z qichishishi
- D. Yutishda og‘riqning bo‘lmsligi

6. Pnevmoniyani aniqlashda qaysi tekshiruv asosiy?

- A. EKG
- B. Koagulogramma

S.O'pkaning rentgenografiyasi

D.UZI

7.Kichik qon aylanish doirasidagi a'zolar

A..Yurak, oshqozon, jigar, o'pka.

B. Yurak, o'pka

S.Yurak, miya, jigar, buyrak

D.Yurak, buyrak

8.Katta qon aylanish doirasidagi a'zolar

A.Yurak, miya, oshqozon, buyrak, jigar

B..Yurak, o'pka

S.Yurak, qon tomirlar, buyrak,

D.Yurak, miya, qon tomirlar, o'pka

9.Yurak devorlari necha qavatdan iborat?

A.Ikki

B.Besh

S.Uch

D.To'rt

10.Ateroskleroz sabablari nima?

A.Xo'l mevalarni ko'p iste'mol qilish, kamxarakatlilik, ortiqcha vazn, qondagi xolesterin miqdorining ortishi.

B.Xayvon yog'laridan tayyorlangan ovqatlarni istemol qilish, kamxarakatlilik, ortiqcha vazn, qondagi xolesterin miqdorining ortishi.

S.AQB tushib ketishi, anemiya, ozib ketish.

D.AQB ko'tarilishi, anemiya, semizlik.

11.Maxalliy to'qimallardagi qonsizlanish bu?

A.Ishemiya

B.Giperemiya

S.Anemiya

D.Gipotrofiya

12. Stenokardiyada shoshilinch yordam?

- A.Til ostida nitropreparatlar berish
- B.Narkotiklar yuborish
- S.Qon chiqarish
- D.Novshadil (nashatir)spirti xidlatish

13. Miokard infarktda shifokorgacha bo'lgan yordam ?

- A.Bemorni tinchlantirish, nitropreparat til ostiga berish, vrachga xabar berish, AQB, pulsni aniqlash
- B.Yotkizish, nitroglitserin berish
- S.Yurak soxasiga xantal qo'yish, validol berish
- D.Oksigenoterapiya, morfin yuborish

14. Miokard infarkti tashxisini tasdiqlashda qo'llaniladi?

- A.EKG va qonning bioximik taxlili
- B.Puls va arterial bosimni tekshirish
- S.Yurakni UTT, kukrak kafasining rentgenografiyasi
- D.Fonokardiografiya, UTT, yurak auskultatsiyasi

15. Yurak ishemik kasalliklarida bemorlarni davolashda qaysi parxez stoli tavsiya qilinadi?

- A.10 parxez stoli
- B. 9 parxez stoli
- S.7 parxez stoli
- D. 15 parxez stoli

16. Miokard infarktining asosiy sababi?

- A.Koronar arteriyalar aterosklerozi
- B.Gipertoniya kasalligi
- S.Qonda qand miqdorining oshishi
- D.Mitral klapan nuqsoni stenoz ustunligi bilan

17. Stenokardiya xurujida og'riqning davomiyligi?

- A.20 minutgacha

B.45 minutgacha

S.1 soatgacha

D.2soatgacha

18. Stenokardiyada shoshilinch yordam?

A.Til ostida nitropreparatlar berish

B.Narkotiklar yuborish

S.Qon chiqarish

D.Novshadil (nashatir)spirti xidlatish

19. Miokard infarktda shifokorgacha bo'lgan yordam ?

A.Bemorni tinchlantirish, nitropreparat til ostiga berish, vrachga xabar berish, AQB, pulsni aniqlash

B.Yotkizish, nitroglitserin berish

S.Yurak soxasiga xantal qo'yish, validol berish

D.Oksigenoterapiya, morfin yuborish

20.Jigar sirrozining asoratlari:

A.Kofe kuykasimon kayd kilish, ichini karamoysimon ketishi, bosh aylanishi.

B.Inisperator xansirash, yutal, och kizil rangdagi kon aralash ko'piksimon balgam

S.Qattik chankash, ogiz kurishi, darmonsizlik, poliuriya

D.Ochlik xissi, ko'p terlash, darmonsizlik, bosh aylanish, talvasa

21.Oshqozon yara kasalligida og'riq qachon paydo bo'ladi?

A.Ovqatlangandan so'ng 3 soatdan keyin

B.Ovqatlangandan 10-15 minutdan keyin

S.Yog'li ovqat istemol qilgandan so'ng

D.Ovqatlanishga bog'liq emas

22.Yara kasalligining asoratiga nima kirmaydi?

A.Qon ketish

B.Oshqozon teshilishi

S.Rak paydo bo'lishi

D.Bemorni koma xolatiga tushishi.

23. Jigar sirrozida kuzatiladigan sindromlar?(3)

- A. Jigar yetishmovchili;
- B. Hamma javoblar tugri;
- S. Portal gipertenziya;
- D. Xolestaz;

24. Jigar va ut yullari kasalliklari kuzgalish davrida kulaniladigan parxez stoli №?(1)

- A. 5;
- B. 7;
- S. 9;
- D. 15;

25. Gepatitning sabablari nimalar bo'lishi mumkin(2)

- A. Noto'g'ri ovqatlanish, kam jismoniy xarakat
- B. Zaxarli moddalar , spirtli ichimliklar, viruslar ta'sirida
- S. Asabiylashish, semizlik
- D. Kamxarakatlilik, jismoniy zo'riqish

26. Me'dadan kon ketishida bemor shikoyatlari.

- A. Kofe kuykasimon kayd kilish, ichini karamoysimon ketishi, bosh aylanishi.
- B. Insperator xansirash, yutal, och kizil rangdagi kon aralash ko'piksion balgam
- S. Kattik chankash, ogiz kurishi, darmonsizlik, poliuriya
- D. Ochlik xissi, ko'p terlash, darmonsizlik, bosh aylanish, talvasa

27. Oshqozon yara kasalligida og'riq qachon paydo bo'ladi?

- A. Ovqatlangandan so'ng 3 soatdan keyin
- B. Ovqatlangandan 10-15 minutdan keyin
- S. Yog'li ovqat istemol qilgandan so'ng
- D. Ovqatlanishga bog'liq emas

28. Yara kasalligining asoratiga nima kirmaydi?

- A. Qon ketish
- B. Oshqozon teshilishi

S.Rak paydo bo'lishi

D.Bemorni koma xolatiga tushishi.

29. Jigar sirrozida kuzatiladigan sindromlar?

A. jigar yetishmovchili;

B. xamma javoblar tugri;

S. portal gipertenziya;

D. xolestaz;

30. Gastrit bu.....

A. Ichakning yallig'lanishi.

B. O't pufagining yallig'lanishi.

S. Me'daning yallig'lanishi

D.Jigar kasalligi

31. Bemorlarni sun'iy yo'l bilan qanday ovqatlantiriladi.

A.Zond orqali.

B. Traxeostoma orqali.

S. Drenaj orqali.

D. Choynaksimon idish orqali.

32. Xoletsistit-bu...

A.Me'daning yallig'lanishi

B.O't pufagining yallig'lanishi

S. Ichaklarning yallig'lanishi

D. O'pkaning yallig'lanishi

33. Kolit-bu...

A.O'pkaning yallig'lanishi

B. Oshqozonning yallig'lanishi

S.Buyrakning yallig'lanishi

D. Yo'g'on ichakning yallig'lanishi

34. Tungi va kunduzgi diurezni farqini aniklash uchun qaysi usuldan foydalaniladi?

- A.Zimnitskiy
- B.Nechiprenko
- S.Reberg
- D.Addis-Kakovskiy;

35. Nechiporenko metodini qullashdan maqsad?

- A.1ml siydikda shakilli elementlarini sonini aniqlash;
- B.sutkalik diurezni aniqlash;
- S.siydikda oqsillarni aniqlash;
- D.siydik filtratsiyasi va reabsorbsiyasini aniqlash

36. Bemor sutkada 450 ml siydik ajratdi Diurez buzilishini bu

- A. oliguriya
- B.poliuriya;
- S.anuriya;
- D.nikturiya;

37. O'tkir glomerulonefritga xos?

- A.yuzlarda shish, gematuriya
- B.AB pasayishi, xaroratning kutarilishi
- S.bel sohasida og'riq, piuriya;
- D.bel sohasida og'riq, nikturiya

38. O'tkir glomerulonefritda qo'llaniladigan preparatlar?

- A.antibiotiklar, nitrofurantar, garmonlar, oqsil preparatlari
- B.antigistaminlar, antibiotiklar
- S.nitrofurantar, gipotenziv vositalar
- D.gipotenziv vositalar, antibiotiklar

39. Surunkali buyrak yetishmovchiligi zamonaviy davolash usuli?

- A.gemodializ
- B.sistostomiya;
- S.paranefral blokada
- D.kon va kon urini bosuvchi preparatlarni kuyish;

40. Furosemid berish koidasi?

- A.ertalab, och koringa,kaliy preparatlari bilan
- B.ovkatdan oldin, 3 maxal sutka davomida
- S.ertalab, och koringa, analgetiklar bilan;
- D.kechkurun ovkatdan oldin;

41.Xronik glomerulonefritda asosiy laboratoriya topilmalari aysilar?

- A.Leykotsitoz va giperglikemiya
- B.proteinuriya va gematuriya
- S.Xolesterin va triglitserinning ortishi
- D.Kreatinning pasayishi

42.Qaysi holatda dializ mumkin?

- A.YUIK larda
- B.Buyrakni surunkali yetishmovchiligida
- S.Saraton kasalligida
- D.Qon bosimi past bo'lganda

43.Qandli diabet buyrakka qanday ta'sir ko'rsatishi mumkin?

- A.Glomerulonefritga olib keladi
- B.Buyrak infarkti rivojlanadi
- S.Diabetik nefropatiyaga olib keladi
- D.Piyelonefrit rivojlanadi

44. Qandli diabet kasalligida qon tarkibida qaysi modda ko'payadi?

- A.Glitserin
- B.Glyukoza
- C. Etanol
- D. Fruktoza

45. Giperglikemik komaning sabablari

- A.insulin dozasining kam yuborish, parxezga rioya kilmaslik, asabiy zurikish.
- B. jigar kasalliklari – jigar sirrozi

S. surunkali buyrak kasalliklari

D. insulin, dozasini ko'p yuborilishi, och kolish, jismoniy zurikish.

46. Qandli diabetda ratsionda qo'yidagilarni kamaytirish kerak:

A. Uglevodlarni

V. Suv, to'zni

S. Sig'ir sutini

D. Meva, sabzavotlar

47. Qandli diabetni etiologiyasi:

A. Sovuq qotish

V. Isib ketish

S. Oqsillarni ko'p miqdorda iste'mol qilish

D. Nasliy faktor

48. Gipoteriozli bemorlar parxezi qo'yidagilarga boy bo'lishi kerak:

A. Yodga

V. Kaliyga

S. Kalsiyga

D. Vitamin D ga

49. №9 chi parxez stoli beriladi qo'yidagi bemorlarga:

A. Tireotoksikozda

V. Gipoteriozda

S. Endemik buqoqda

D. Qandli diabetda

50. Insulinni qo'yidagi temperaturada saqlash kerak:

A. $+4^{\circ}\text{S} - +6^{\circ}\text{S}$ da

V. $-6^{\circ}\text{S} - -4^{\circ}\text{S}$ da

S. $+10^{\circ}\text{S} - +12^{\circ}\text{S}$ da

D. $-10^{\circ}\text{S} - -12^{\circ}\text{S}$ da

1. Yuz shishi, gipotermiya, xotira pasayishi qo‘yidagi kasalliklarda

bo‘ladi:

- A. Eutireoid buqoqda
- V. Diffuz toksik buqoqda
- S. Orttirilgan gipoteroiozda
- D. Insulinga bog‘liq qandli diabetda

2. Diabetik retinopatiya tashhisi quyish uchun bemorga qo‘yidagi konsultatsiya kerak?

- A. Gematologning
- V. Oqulistning
- S. Xirurgning
- D. Ftiziatrning

3. Bolalarda qandli diabetda qanday qo‘shimcha belgi bo‘ladi?

- A. Piodermiya
- V. Sariqlik
- S. Anulyar eritemasi
- D. Akrotsianoz.

4. BTSYOM ning asosiy maqsadi nima?

- A. Faqat statsionar davolash
- B. Aholini profilaktik va davolash xizmati bilan ta‘minlash
- S. Faqat tez yordam ko‘rsatish
- D. Faqat reabilitatsiya

5. Tibbiy brigada hamshirasining asosiy vazifalaridan biri?

- A. Faqat qabulxonada ishlash
- B. Aholini profilaktik ko‘rikdan o‘tkazish
- S. Faqat xujjat yuritish
- D. Faqat dorilar tarqatish

6. Tuman \shahar oilaviy poliklinikasida patronaj ishini amalga oshiruvchi xodim kim?

A.SES xodimi

B.Hamshira

S.Farmatsevt

D.Laborant

7.Birlamchi bo‘g‘in hamshirasining profilaktik vazifasi?

A.Operatsiyada yordam berish

B.Profilaktik emlashlarni tashkil etish

S.Qon quyish

D.Reanimatsiya o‘tkazish

8.Patronaj vaqtida hamshira nimaga e’tibor qaratadi?

A.Faqat xujjatlarga

B.Oilani ijtimoiy va sanitar holatiga

S.Faqat bolalar soniga

D.Faqat oziq-ovqatga

9.Profilaktika sifatida skrining nima?

A.Xavf guruhlarini tekshirish

B.Faqat kasallarni davolash

S.Operatsiyadan keyingi

D.Tez yordam chaqirish

10.Xomilador ayollarni kuzatishning asosiy maqsadi?

A.Faqat xujjat tayyorlash

B.Asoratlarni oldini olish

S.Chaqaloq vaznini belgilash

D.Yuqumli kasalliklarni davolash

11.Patronaj hamshirasi uyma-uy yurishda qaysi ma’lumotlarni yig‘adi?

A.Faqat pasport ma’lumotlarini

B.Sanitar-gigiyenik xolatini va salomatlik ma’lumotlarini

S.Daromad ma’lumotlari

D.Faqat bolalar ro‘yxati

12. BTSYOM da hamshiraning xisobot yuritish vazifasi qanday?

- A. Majburiy emas
- B. Faqat shifokor bajaradi
- S. Aholi salomatligi bo'yicha ma'lumot to'plash
- D. Faqat statistik ko'rsatkichlarni yozish

10. Muloqotning qanday usullari mavjud?

- A. Verbal va Noverbal
- B. Yakka va jamoat bilan muloqati
- S. Ochiq va yopiq
- D. Samarali va samarasiz

11. Deontologiya tushunchasi qanday ma'noni bildiradi?

- A. Hamshirani axloq-odobi, yurish-turishi, muomalasi tushuniladi
- B. Bemorni kasalxonaga va uning sharoitlariga moslashguncha bo'lgan ruhiy kechinmalar yig'indisi
- S. Tibbiyot hodimlarining xatti-xarakatlari va munosabatlaridagi nuqsonlar natijasida kelib chiqadigan bemorlardagi xolat
- D. Berilgan vazifalarni bajarishi

12. Noverbal muloqot bu-?

- A. Bemorlarga sovuqqonlik bilan javob berish
- B. Boshni qimirlatish
- S. Eshitish, savollar berish, qaytarish va reaksiya ko'rsatish san'ati
- D. Gavda holati, yuzdagi mimika, ko'z aloqasi

13. Bemorni rag'batlantirishning afzalliklari.

- A. Bemorni tinchlantirasiz
- B. Uni bo'shshishiga sharoit yaratasiz
- S. U yaxshi xis qiladi
- D. Bemorni tinchlantirasiz, sizga qayta murojaat etishga rag'batlantirasiz.

14. SHAMda qayta bog'lanishning muhimligini sababini ko'rsating?

- A. Bemor tushunganligini tasdiqlaydi.
- B. Bemor savollar berishida yordam beradi.
- S. Tibbiyot xodimiga bemorni qo'llab quvvatlashga yordam beradi.

D.Xamma javob to'g'ri

15.Preeklampsiyaning asosiy belgisi?

A.Temperatura ko'tarilishi

B.Proteinuriya va gipertoniya

S.Qon qandining pasayishi

D.Bosh og'rig'i

16.Gestatsion diabet qaysi haftada aniqlanadi?

A.1-5 haftada

B.10-15 haftada

S.24-28 haftada

D.40haftada

17.Xomila gipoksiyasining asosiy belgisi?

A.Xomila harakatining kamayishi

B.Og'iz qurishi

S.Bel og'rig'i

D.Temperatura ortishi

18.Sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilishga nimalar kiradi?

A.Sog'lom ovqatlanish

B.Meyoriy jismoniy faollik;

S.Chekishni to'xtatish;

D.Spirtli ichimliklarni chegaralash;

5)profilaktika maqsadida vrach huzurida muntazam kuzatuvda bo'lish

19. Xamshira tashxisi vrach tashxisidan farki nimada

A.Vrach tashxisi soat sayin uzgarib boradi

B.Xamshira tashxisi uzgarmaydi

S.Ikkalasi xam uzgarmaydi

D.Vrach tashxisi uzgarmasdan kolishi mumkin, lekin xamshira tashxisi uzgarib borishi mumkin

20. Oila xamshirasi axoliga qanday yordam ko'rsatadi

A.Sanitariya-targibot ishlari orkali tibbiy madaniyatini oshiradi va kerak bulganda tibbiy yerdam kursatadi.

B.Tibbiy yerdam kursatadi sixatgoxlarga yullanma beradi

S.Sanitariya-targibot ishlarini olib boradi

D.Muammolarini yechadi, dispanserlarga yullanma beradi

21. Homiladorlikdagi havfli belgilar qaysilar?

A.Ko‘p ovqat iste‘mol qilish, kamqonlik, homilaning sust faolligi.

B.Homilador ayolni meva – sabzovotlar iste‘mol qilmasligi, shish.

S. Kamqonlik, homilaning sust faolligi, shish, kindan qon ketish, sarg‘ayib ketish.

D.Homilador ayolni qayta-qayta qayt qilishi, kuchli qorin og‘rig‘i, shaytonlash.

22. Homiladorlik vaqtida zudlik bilan tibbiy yordamni talab etuvchi belgilar?

A.Qindan qon ketishlar.

B.Kuchli (o‘tkir) qorin og‘rig‘i.

S. Ko‘rish qobiliyatini buzilishi.

D.Bosh aylanishi.

23.Muddatidan oldin tug‘ruq belgisi?

A.Oqindilarni ko‘payishi

B.Bachadon bo‘yni ochilishi

S.To‘qima og‘riq

D.Ich qotishi

24. Fetoplatsentar yetishmovchilikda asosiy xavf?

A.Onaning vazni oshishi

B.Xomila o‘shining orqada qolishi

S.Yurak urishi tezligi

D.Ushlab qolish

25. Bexatar onalik atamasi ostida nima tushuniladi?

A.Xomiladorlik paytida ayolning akliy, jismoniy va ijtimoiy mu‘tadilligi.

B.Onalar xastalanishi va ulimni oldini olish.

S.Tug‘ruqni maxsus muassasalarda yukori malakali akusher ginekolog ishtirokida olib borish.

D.Tug'ruqdan oldin, Tug'ruq jarayonida va Tug'ruqdan keyingi davrda ayolning jismoniy, akliy va ijtimoiy mu'tadilligi va uning okibatida soglom bola tugilishi.

26. Xomilador ayollarda tekshirish usullarining kaysi birini o'tkazish shart emas?

A.Arterial bosimni ulchash

B.Vaznni aniklash

S.Siydik taxlili

D.Xomilaning yurak urishini eshitib kurish

27.Xomilador ayol uchun ovqatlanishning asosiy tamoyili qaysi?

A.Kaloriyani qisqartirish

B.Balanslangan to'yimli ovqatlanish

S.Faqat oqsil iste'moli

D.Faqat meva iste'moli

28.Folat kislotasi qaysi xavfni kamaytiradi?

A.Og'riq qoldiradi

B.Asab naylari nuqsonlari

S.Allergiya

D.Qon bosimini

29.Xomiladorlikda kunlik gigiyenaning asosiy maqsadi nimada?

A.Ularni charchatish

B.Infeksiyani oldini olish

S.Yurak urishiga ta'siri bor

D.Kaloriyani yoqish

30.Xomiladorlikda suv ichish meyori nimaga bog'liq?

A.Faollik va ob-xavo

B.To'y fasliga

S.Uy sharoitiga

D.Og'irlik darajasiga

31.Antenatal kuzatuv qaysi maqsadda o'tkaziladi?

- A.Faqat vazn o'lchash
- B.Ona va xomilaning xolatini baholash
- S.Sport bilan shug'ullanish
- D.Ovqatlanishni cheklash

32.Qaysi vitamin qon yasalishiga yordam beradi?

- A.Vitamin S.
- B.Vitamin A.
- S.Vitamin K.
- D.Vitamin D.

33.Xomiladorlikda qattiq diyeta nimaga olib kelishi mumkin?

- A.Zarur moddalar tanqisligi
- B.Xomilaning tez o'sishi
- S.Kuchli immunitet
- D.Tez tug'ish

34.Xomiladorlarga yengil yurish mashqlari qanday rol o'ynaydi?

- A.Stressni kamaytiradi
- B.Yomon ta'sir qiladi
- S.Uxlashni buzadi
- D.Asabiylashtiradi

35.Gigiyenada qaysi omil muhim?

- A.Suvning harorati
- B.Shaxsiy tozalik
- S.Ko'p vaqt suvda turish
- D.Pardoz qilish

36.Qon kamayishda birlamchi profilaktika nima?

- A.Tartibsiz ovqatlanish
- B.Temirga boy mahsulotlar
- S.Kam suv ichish
- D.Faqat fast fud iste'mol qilish

37. Chilla davrining 3-4 kuni. Tana harorati 39°C, qorin pastida og'riq, tug'ruq yo'llaridan yiringli loxiyalar ajralmoqda. Sizing taxminiy tashxisingiz va birinchi yordamingiz?

A. Endometrit, antibiotiklar, simptomatik davolash, suyuqliklar

B. Endometrit, qindan bakteriologik tekshiruv olish, isitmani tushirish

S. Chilla yarasi, kolpit, surtma olish, antibiotiklar

D. Pelveoperitonit, antibiotiklar, sulfanilamid preparatlari

38. Fiziologik sargayish kaysi davrda uchraydi

A. O'smirlarda

B. Bolalarda

S. Kattalarda

D. Yangi tugilgan chakaloklarda

39. Fiziologik sariklikda konda kanday uzgarish sodir buladi

A. Giperbilirubinemiya

B. Gipobilirubinemiya

S. Leykotsitoz

D. Leykopeniya

40. Yakin karindoshlar urtasidagi nikox kanday salbiy okibatlariga olib keladi

A. Xomiladorayel salomatligiga salbiy tasir kursatishi

B. Nogiron bolalar tugilishiga

S. Xomila jinsiga ta'sir kursatadi

D. Xomilador ayelda kasalliklar rivojlanishiga olib keladi

41. Bolalarning to'satdan o'lish sindromi (BTO'S) bu:

A. Bu 1 yoshga to'lmagan bolalarning kutilmaganda va noma'lum sabablarga ko'ra o'lishidir.

B. Bu 5 yoshgacha bo'lgan bolalarning ma'lum sabablarga ko'ra o'lishidir.

42. Perinatal depressiyaning belgilari?

A. Doimiy holdan toyish.

B. Aybdorlik hissi.

S. Yaxshi ko'rib qiladigan ishlarga qiziqishni yo'qotish.

D.Talvasaga tushish.

43.Perinatal ruxiy kasalliklarni tashxislashda yordam beradi

A.Apgar shkalasi.

B.Edinburg shkalasi.

S.Maxsus 3ta savol berish.

D.Tez charchash, uyquning buzilishi - kasallikning asosiy belgilari hisoblanadi

44. Oy kuni yetib tugilgan soglom chakalokning belgisi?(1)

Terisi pushti rang

Terisi kukimtir

Terisi ok rang

Terisi kizil rang

45. Gipogalaktiya nima?(3)

A.Chakalokning to‘ymasligi

B.Chakalokni ko‘p sut emib ko‘yishi

S.Sut bezlarining sut ishlab chikarish kobilyatini pasayishi

D.Sutning ko‘p kelishi

46.Chilla davri qancha vaqt davom etadi?

A.1hafta

B.2-4 kun

S.6 hafta

D..2 oy

47.Mastitning asosiy belgilaridan bir

A.Ko‘krakda og‘riq va qizarish

B.Qo‘l titrog‘i

S.Ko‘p uyquchanlik

D.Ozish

48.Chaqaloqda gipotermiya belgisi qaysi?

A.tana harorati past

B.Qizarish

S.Chiroyli uyqu

D.Tez-tez yig'lash

49.Ona sutining kamligi nimaga olib kelishi mumkin?

A.Gipogalaktiya

B.Tana haroratining oshishi

S.ko'p uxlash

D.Tez o'sish

50.Chilla davrida ayolda qaysi xolat xavf belgisi xisoblanadi?

A.Kichik lohiya

B.Istimani bo'lishi

S.Kuniga 5-6 marta emizish

D.Sut kelishi

VARIANT№5

1.Chaqaloqda qaysi simptom xavf omillaridan?

A.Chaqaloqni tinch uxlashi

B.Emizishdan bosh tortish

V.Haddan tashqari harakatchanlik

G.Ko'p qulog'i qimirlashi

2.Bexatar onalik atamasi ostida nima tushuniladi?

A.Xomiladorlik paytida ayolning akliy, jismoniy va ijtimoiy mu'tadilligi.

B.Onalar xastalanishi va ulimni oldini olish.

V.Tug'ruqni maxsus muassasalarda yukori malakali akusher ginekolog ishtirokida olib borish.

G.Tug'ruqdan oldin, Tug'ruq jarayonida va Tug'ruqdan keyingi davrda ayolning jismoniy, akliy va ijtimoiy mu'tadilligi va uning okibatida soglom bola tugilishi.

3.Tug'ruqdan keyingi chilla davri necha kun davom etadi?

A.2 kun

B.42 kun

V.56 kun

G.70 kun

4.AOKning eng ko'p uchraydigan nojuya ta'siri nima?

- A.Sariklik va kurishning buzilishi
- B. Ko'ngil aynishi va sut bezlari ogrikliligi
- V.Kukrakda kuchli ogrik va xansirash
- G.Allergik reaksiya

5.Depo-Provera inyeksiyasi kilinadi:

- A.Xar oyda
- B.Xar 2 oyda
- V.Xar 3 oyda
- G.Bir yilda 2 marta

6.BIV (Bachadon ichi vositasi) kuyidagi muddatdan so'ng olinishi yoki ayolning istagi buyicha yangisiga almashtirish mumkin.

- A.3 yilda
- B.5 yilda
- V.8 yilda
- G.10 yilda

7.Prezervativlarning eng muxim xususiyati nima?

- A.Tez samara berishi
- B.Nojuya ta'siri yukligi
- V.Arzonligi
- G.JYOYUK va OITS dan ximoya kilishi.

8. Homiladorlikning ehtimolli belgilarini aniqlang?

- A.Boshkorongilik, homilaning qimirlashi, bachadonning kattalashuvi
- B Xayz ko'rishning tuxtashi, bachadonning kattalashuvi, qin shilliq pardasining ko'karishi
- V.Qin shilliq pardasining ko'karishi, homila yuragining urushi
- G.homilaning qismlarini paypaslab aniqlash, yurak urushi, qimirlashi

9.Homiladorlikning ilk muddatlari qaysi belgilarga asoslanib tashxis qilinadi?

A. ishonchli va aniq belgilar

B. taxminiy, extimolli va ishonchli belgilar

V. xayz ko'rishning to'xtashi

G. taxminiy, ishonchli belgilar

10. Homiladorlikni aniq belgilariga kiradi:

A. Hayzni to'xtashi, qin shilliq qavatini ko'karib qolishi, homilani qimirlashi;

B. Homilani qimirlashi, yurak urishini eshitish, mayda qismlarini paypaslashi

V. Biologik sinamalarni musbatligi, UTT homilani tuzilishi;

G. Hayzni to'xtashi, ko'ngil aynashi, qusish, yuzlarda dog' bo'lishi va qorinni kattalashuvi.

11. Birinchi va qayta tug'ayotgan ayol homiladorlikning nechanchi xaftasida homilaning qimirlashini sezadi?

A. 16-14 hafta

B. 18-16 hafta

V. 20-18 hafta

G. 18-20 hafta

12. Homilaning pozitsiyasi - bu

A. Homila kuragini bachadon oldingi va orqa yuzasiga nisbatan joylashuvi;

B. Homila boshini bachadonni u yoki bu yon boshiga nisbatan joylashuvi;

V. Homila kuragini bachadonning yon devorlariga munosabati;

G. Homila a'zolarini normal joylashuvi.

13. Oilaviy shifokorlik ambulatoriyasi (poliklinika) da homiladorlar uchun qanday hujjat to'ldiriladi?

A. Ambulator kasallik varaqasi;

B. Tug'ruq tarixi;

V. Homilador va tuqqan ayolni shaxsiy varaqasi, almashinuv varaqasi;

G. Kasallik tarixi.

14. BIV quyidagi tarkibda bo'ladi:

A. Inert

B. Mis tutuvchi

V.Tarkibida gormon bo'ladi

G..Hammasi to'g'ri

15.BIV o'rnatishdan oldin bemorni ginekologik ko'rikdan o'tkazish.

A.Majburiy

B.Ko'rsatma bo'lsa

V.Kerak emas

G.Barchasi noto'g'ri

16.BIV o'rnatgandan keyin qancha muddat ishlatilishi mumkin?

A.1yildan so'ng

B.5 yildan so'ng

V..3yildan so'ng

G.10 yilgacha

17.BIV olib tashlangandan so'ng ayolda fertillik qachon qaytadi?

A.Darhol

B.1oydan so'ng

V.3oydan so'ng

G.1yildan so'ng

18.Emizikli ayollarga qanday kontratseptiv vosita qo'llash mumkin?

A.BIV,AOK,sof progestinli tabletkalar.

B.BIV,inyeksion kontratseptivlar.

V. BIV,AOK, inyeksion kontratseptivlar.

G. BIV,inyeksion kontratseptivlar, sof progestinli tabletkalar

19.Kontratseptiv usullarni qaysi turi qaytmas hisoblanadi?

A.BIV

B.Gormonal

V.IJK

G.Inyeksion

20.AOK quyidagilardan himoya qiladi:

A.endometriy raki.

B. Tuxumdonlar raki, kistalari

V. Temir tanqisligi kamqonligi

G. Yuqoridagilarni barchasi.

21. Inyeksiyali kontratseptiv vositalarni ta'sir mexanizmi?

A. Ovulyatsiyani susaytiradi.

B. Bachadon shilliq qavatini yupqalashtiradi.

V. Bachadon bo'yni shillig'ini quyiqlashtiradi.

G. Barchasi to'g'ri.

22. Kontratseptiv vositalarni tanlashda usulni kim tanlaydi?

A. Shifokor

B. Mijoz

V. Shifokor konsiliumi

G. O'rta tibbiyot xodimi

23. Agar ayol 1 yoki 2 tabletka unutgan bo'lsa u holda?

A. Odatdagi tartibda qabul qilishi mumkin

B. 1-2 unutilgan tabletkani tashlab yuborib davom ettirish mumkin.

V. Hayz kelgunicha tabletkalarni to'xtatib turish kerak

G. 2 tabletkadan yoki 2 kun(necha kun ichishni unutgan bo'lsa) ichib odatdagi tartibda davom ettirish.

24. Prezervativlarni eng muhim hususiyati nima?

A. Tez samara berishi

B. Sistemali nojo'ya ta'siri yo'qligi.

V. Arzonligi.

G. JYOYUK dan himoya qilishi.

25. Kontratsepsiya vositalarini maqbullik mezonlarini o'rganish mumkinmi?

A. Yo'q

B. Har tomondan kerak.

V. Noto'g'ri

G. Ha

26.BIV quyidagi tarkibda bo'ladi:

A.Inert

B.Mis tutuvchi

V.Tarkibida gormon bo'ladi

G.Hammasi to'g'ri

27.BIV o'rnatishdan oldin bemorni ginekologik ko'rikdan o'tkazish.

A.Majburiy

B.Ko'rsatma bo'lsa

V.Kerak emas

G.Barchasi noto'g'ri

28.BIV o'rnatgandan keyin qancha muddat ishlatilishi mumkin?

A.1yildan so'ng

B.5 yildan so'ng

V.3yildan so'ng

G.10 yildan so'ng

29.BIV olib tashlangandan so'ng ayolda fertillik qachon qaytadi?

A.Darhol

B.1oydan so'ng

V.3oydan so'ng

G.1yildan so'ng

30.Emizikli ayollarga qanday kontratseptiv vosita qo'llash mumkin?

A.BIV,AOK,sof progestinli tabletkalar.

B.BIV,inyeksion kontratseptivlar.

V.BIV,AOK, inyeksion kontratseptivlar.

G. BIV,inyeksion kontratseptivlar, sof progestinli tabletkalar

31.Kontratseptiv usullarni qaysi turi qaytmas hisoblanadi?

A.BIV

B.Gormonal

V.IJK

G.Inyeksion

32.AOK quyidagilardan himoya qiladi:

A.Endometriy raki.

B. Tuxumdonlar raki, kistalari

V.Temir tanqisligi kamqonligi

G. Yuqoridagilarni barchasi.

33.Inyeksiyali kontratseptiv vositalarni ta'sir mexanizmi?

A.Ovulyatsiyani susaytiradi.

B.Bachadon shilliq qavatini yupqalashtiradi.

V.Bachadon bo'yni shillig'ini quyiqlashtiradi.

G.Barchasi to'g'ri.

34.Kontratseptiv vositalarni tanlashda usulni kim tanlaydi?

A.Shifokor

B.Mijoz

V.Shifokor konsiliumi

G.O'rta tibbiyot xodimi

35. Gipogalaktiya nima?

A.Chakalokning tuymasligi;

B.Chakalokni ko'p sut emib kuyishi;

V. Sut bezlarining sut ishlab chikarish kobilyatini pasayishi;

G. Kukrak uchini yorilishi;

36.Epidemiya nima?

A.Ma'lum bir xududda kasallikning yoppasiga tarqalishi

B.Kasallikning suv orkali tarqalishi

V.Kasallikning asoratlari

G.Kasallikning anchagina ko'payishi

37. Raxit kasalligining kelib chikish sababi?

A. Oksillar yetishmaganda;

B. Vitamin-D yetishmaganda;

- V. Vitamin-YE yetishmaganda;
- G. Temir moddasi yetishmaganda;

38. Eksudativ diatezda kaysi simptom asosiy xisoblanadi?

- A. ko'p terlash;
- B. Ensa soxasida soch tukilishi;
- V. terida yiringli toshmalar bulishi;
- G. Tilning geografiya parchasiga uxshashligi;

39. Omfalit nima?

- A. Kuz shillik pardasining yalliglanishi;
- B. Burun shillik pardasining yalliglanishi;
- V. Kindik yalliglanishi;
- G. Ogiz bushligining yalliglanishi;

40. Kandli diabet kuyidagi kandy preparat bilan davolanadi?

- A. Efedrin;
- B. Penitsilin;
- V. Insulin;
- G. Magnezii sulfat;

41. Zotiljamda kuyidagi simptomlar buladi?

- A. Xarorat kutarilishi;
- B. Burun kataklarining kerilishi;
- V. Teriga toshma toshishi;
- G. Ko'p siyish;

42. Bronxial astmalarda kuyidagi kandy simptomlar buladi?

- A. Siydik sargayishi;
- B. Ko'p suv ichish;
- V. Nafas chikarish kiyinligi;
- G. Viruslar;

43. Difteriyani kuyidagi mikroob chikaradi?

- A. Virus;

B. Zamburug;

V. Leffler tayokchasi;

G. Streptokok;

44.Sog'lom turmush tarziga zid bo'lgan xolatlarni aniqlang.

A. Gipodinamiya, zararli odatlar, stress

B. Suzish, toza xavoda sayr qilish

V. O'z vaqtida, meyoriy ovqatlanish

G. Sport bilan shug'ullanish, to'g'ri ovqatlanish

45.Epidemik parotit chakiruvchisi?

A. Streptokokk;

B. Zamburug;

V. Filtrlanuvchi virus;

G. Leffler batsilasi;

46.Kukyutalda kuyidagi simptomlar kanday buladi?

A. Repriz;

B. Badanga toshma toshish;

V. Til geografiya xaritasiga uxshaydi;

G. Bugimlarda ogrik;

47.Ichburugda kuyidagi kanday simptomlar buladi?

A. Siydik sargayishi;

B. Axlat okarishi;

V. Axlat kon, yiring aralash;

G. Ko'p yiglash;

48.Nafas a'zolari kasalligi?

A.Gastrit;

B. Gepatit;

V. Enterit;

G. Laringit;

49.Sil kuzgatuvchi mikroblar?

A.Leffler batsilasi;

B.Virus;

V.Kox bakteriyasi;

G.Stafilakok;

50.Enterobiozda kuyidagi simptom buladi?

A. Siydik sargayishi;

B. Yutal;

V. Korinda ogrik, ogzidan sulak okish, tishlarni gijirlashi;

G. Xansirash;

6.4 AMALIY KO'NIKMALAR

1.XAMSHIRALIK JARAYONI BOSQICHLARINI OLIB BORISH.

1. Ma'lumot to'plash.

Sub'ektiv ma'lumotlar - hamshira bemor bilan suxbatlashish jarayonida oladi.

Bu ma'lumotlar bemorning xolatiga, kayfiyatiga bog'liq xolda o'zgarishi mumkin

1. Bemor sog'ligidagi muammolarning paydobo'lishi.
2. Ijtimoiy axvoli.
3. Rivojlanish tarixi.
- 4..Madaniyaxvoli.
5. Ruxiy axvoli.

Ob'ektiv ma'lumotlar .

1. Ko'zdan kechirish.
2. Palpatsiya.
3. Auskultatsiya.
4. Arterial bosimni o'lchash.
5. Pulsni sanash.
6. Tana xaroratini o'lchash.

2. Tashhis qo'yish.

Bemor muammolari: -mavjud muammolar (birlamchi, ikkilamchi, oraliq) paydo bo'ladigan muammolar(birlamchi, ikkilamchi, oraliq)

3. Parvarish rejasini tuzish.

Maqsadlar: kiska,uzoq(bemor va uning oilasi ishtirokida)

4.Parvarish rejasini amalga oshirish.

Kategoriyalar: mustaqil-bog'liq bo'lmagan, bog'liq bo'lgan, o'zoro bog'liq.
Patsientning yordamga bo'lgan talabi: vaqtincha, doimiy.

Parvarish usullari: terapevtik, xirurgik va xayotiy extiyoj.
Ko'zda tutilgan maqsadni bajarish.

5. Baxolash :

Bajarilgan ishlarni baxolash

2. NAFAS TEZLIGINI SANASH TEXNIKASI.

MAQSAD:

-Bolaning nafas tizimining funksional xolatini baxolash uchun nafas xarakatini aniqlash.

KO'RSATMA:

-Shifokor ko'rsatmasi.

MO'NELIK: Yo'q

KERAKLI JIXOZLAR: Suyuq sovun, bir martalik qog'oz salfetka, sekundomer, xarorat varag'i, ruchka.

BAJARISH ALGORITMI:

1. Bemorga nafas olish tezligini sanashimizni ataylab, bemor nafas maromini o'zgartirishini oldini olish maqsadida aytilmaydi.
 2. Bemorni chalg'itish maqsadida pulsini aniqlamoqchiligingiz aytiladi.
 3. Bemorga qulay xolat beriladi.
 4. Bir qo'l bilan bemor bilagi pulsini aniklamokchi bo'lib ushlanadi.
 5. Ikkinchi qo'l bemorning ko'krak qafasiga (nafas olishning ko'krak tipida), yoki qorniga (nafas olishning qorin tipida) qo'yiladi.
 6. Xamshira o'zini bemor pulsini sanayotgandek tutadi, aslida nafas olish tezligi sanaladi.
 7. Nafas olish va chiqarish 1 daqiqa davomida sanaladi. Nafas olish tezligi ritmik bo'lsa, 30 soniyadavomidasanab, natijaniikkiga ko'paytirsaxam bo'ladi.
 8. Bemorga nafas olish maromini aniqlaganingiz aytiladi.
- Natijaxarorat varaqasigabelgilanadi.

SOGLOM BOLALARDA NAFAS OLISH ME'YORI

Bolaning yoshi	Nafasolish soni
Yangi tugilgan chaqaloqlarda	40-60
1 -2 yoshgacha	30-35
3-4 yoshgacha	25-30
5-6 yoshgacha	20-25
10-12 yoshgacha	18-20
16-18 yoshgacha	16-18

3.PULSNI ANIQLASH NUQTALARI.

MAQSAD:

Yurak-qon tomir tizimining funksional xolatini baxolash uchun pulsning xarakatini aniqlash(ritm,chastota,napryajenie).

KO'RSATMA:

-Shifokor ko'rsatmasi.

MO'NELIK: Yo'q

RADIAL PULSNI ANIQLASH:

KERAKLI JIXOZLAR: Suyuq sovun, bir martalik qog'oz salfetka. sekundomer, xarorat varaqasi, ruchka.

BAJARISH ALGORITMI:

1. Qo'llar yuviladi va quritiladi.
2. Bemorga muolaja maqsadi tushuntiriladi.
3. Bemor qulay xolatda o'tkaziladi yoki yotqiziladi.
4. Bemorning qo'li bo'sh egilgan xolatda bo'lishi kerak.
5. Radial pulsni aniqlashda tekshiruvchi bilakning ichki yuzasi, 1/3 pastki qismi, 1 barmoq asosi bo'ylab bilak arteriyasi tomirini shunday ushlashi kerakki II, III, IV barmoqlari tomir ustida bo'lishi kerak.
6. Pulsni tekshirayotgan vaqtda tekshiruvchining IV barmog'i bemorning I-barmog'i ro'parasida bo'lishi kerak.
7. Pulsatsiya qilayotgan arteriyani uchchala barmoq bilan paypaslab, asta bilak suyagining ichki tomoniga bosiladi.
8. Pulsni aniqlayotganda uni maromiga, to'liqligiga axamiyat beriladi.
9. Bilak arteriyasida pulsni sanash mumkin bo'lmaganda uyqu vachakka soxalaridasanaladi.
10. Natijasixarorat varaqasigaruchka bilanbelgilanadi.

Turli yoshdagi bolalarda yurakning qisqarish me'yori.

Bolaning yoshi	Yurakning qisqarish soni
Yangi tugilgan chaqaloqlarda	140-160
1 yoshgacha	120
5 yoshgacha	100
10 yoshgacha	80-85
15 yoshgacha	70-80

ESLATMA :

Puls urishini bundan tashqari quyidagi soxalarda aniqlash mumkin:

a) **Karotid puls** – uyqu arteriyasida, ya'ni kekirdakning yon tomonidagi anatomik chuqurchada aniqlanib, kattalarda o'pka – yurak reanimatsiyasini o'tkazganda foydalaniladi..

b) **Braxial puls** - yelka arteriyasida, ya'ni tirsak chuqurchasi markazining kichik barmoq tomonida

v) **Femoral puls** – son arteriyasida, ya'ni tos suyagining yuqori oldingi qismi va chov birlashmasi o'rtasida aniqlanadi, asosan oyoqlarning qon bilan ta'minlanishi yoki o'pka – yurak reanimatsiyasi o'tkazilganda ko'krak qafasining kompressiyalarini baxolashda foydalaniladi.

g) **Pedal puls** – oyoq kaftining dorzal yuzasida va to'piqning ichki(medial) o'simtasini orqa pastroq qismida aniqlanadi, asosan oyoqlarning qon bilan ta'minlanishini baxolashda foydalaniladi

d) **Apikal puls** – yurak cho'qqisi turtkisida, ya'ni chap o'mrov o'rta chizig'i bo'ylab, 4 – 5 –qovurg'alararo soxada stetoskop yordamida eshitiladi.

ye) Apikal va radial pulsni aniqlash orqali **puls defitsitini** (tanqisligi) aniqlash:

1. Birinchi xamshira stetoskop yordamida apikal pulsni eshitadi, ikkinchi xamshira esa bilak arteriyasida radial pulsni aniqlaydi, puls to'liq 1 daqiqa davomida 2la xamshira 1ta soatga baravar qarab turib aniqlanadi. Agarda bilakdagi pulsning soni apikal pulsdan kam bo'lsa, oradagi farq **puls defitsiti** (tanqisligi) deb ataladi. Normada puls kattalarda 1 daqiqada 60- 80ta gacha bo'ladi. Pulsni to'liq bir daqiqadagi soni sanaladi yoki puls urushi ritmik bo'lsa 30 soniyadagi soni aniqlanib, natijani 2 ga ko'paytiriladi.

4. TANA XARORATINI O'LGASH TEXNIKASI.

MAQSAD:

-Bolaning tana xaroratini aniqlash.

KO'RSATMA:

-Tana xarorati ko'tarilgand shifokor ko'rsatmasi.

-Rejali ravishda tana xaroratini nazorat qilish.

MO'NELIK:

-Xarorat o'lchanadigan joyda bichilish bo'lganda.

KERAKLI JIXOZLAR:-Suyuq sovun, bir martalik qog'oz salfetka, tibbiy termometr, quruq sochiq. Xarorat varaqasi, ruchka.

BAJARISH ALGORITMI:

1. Qo'llar yuviladi va quritiladi.
2. Bemorga muolaja maqsadi tushuntiriladi
3. Termometr silkitish yo'li bilan simob rezervuariga yoki simob ustuni shkalasi 35 darajaga.
4. Bemor qulay vaziyatga joylashtiriladi (stulga o'tirgan yoki kushetkaga yotgan xolatda).
5. Bemorni qo'ltiq osti soxasi quruq sochiq bilan artiladi (qo'ltiq ostida mo'nelik qiladigan xolatlar bo'lmasligi kerak).
6. Termometrning simobli uchini teriga xamma tomonidan tegib turadigan qilib 2/3 qismi qo'ltiq soxasiga qo'yiladi
7. Bemor qo'lini ko'kragiga yaqinlashtirib termometrni qo'ltig'ida qisib turadi.
8. O'lchash vaqtida bemor qimirlamay o'tiradi yoki yotadi (bemor uxlaganda o'lchash mumkin emas).
9. Termometr qo'ltiq ostida 5-10 daqiqa ushlab turiladi.
10. Termometr ko'rsatkichi aniqlanadi.
11. Termometr ko'rsatmasi xarorat varaqasiga belgilanadi.
12. Termometr xarorat darajasi silkitilib, 34-35 darajaga tushiriladi va oqar suv ostida sovunlab yuvib, chayiladi va salfetskada quritiladi.

ESLATMA: tana xaroratini yana chov soxasida o'lchash mumkin, bunda chov soxasi

salfetskada quruq qilib artiladi va termometrni 2/3 qismi chov soxasiga qo'yib, oyoq

tizza soxasida bukilib, chanoq – son soxasida qisib 5- 10 daqiqa ushlab turiladi va natija aniqlanadi.

6.QO'LLARGA GIGIENIK ISHLOV BERISH;

- 1 Qo'llarni iliq suv bilan xo'llanadi.
 - 2.1-2 tomchi suyuq sovundan tomiziladi.
 3. Kaftlarni ko'pik paydo bo'lguncha kamida 15-20 soniya bir biriga ishqalanadi.Barmoqlarni bir biriga qovushtirgan xolda kaftni kaftga ishqalanadi.
 - 4.Qo'l barmoqlarini «Qulf»ga olib, xar bir barmoq uchlarini ishqalanadi. 5.Chap qo'l bosh barmog'ini o'ng qo'lning kafti bilan aylanma xarakatlar bilan ishqalanadi va aksincha.
 - 6.O'ng qo'l barmoqlarini yiqqan xolda chap qo'l kaftiga qo'yib, aylanma xarakatlar qilinadi va aksincha.
 - 7.Qo'llarni oqar suvda yaxshilab chayiladi.
 - 8.Qo'llar sochiq bilan yaxshilab quritiladi.Shu sochiq yordamida kran o'chiriladi.
- Eslatma:** qo'lni bunday zararsizlantirish,mijozlarni tekshirish yoki parvarishlashdan avval,muolajalarni bajarishdan oldin qilinadi;

7.MUSHAK ORASIGA IN'EKSIYA QILISH.

Kerakli jixozlar: Ilig' suv, sovun, steril salfetka yoki quruq sochiqlar, steril qo'lqoplar, bir martalik 5-10 ml li shprits, 70% li spirt eritmasi, steril paxta sharchalar, yuboriladigan dori, 0,5%li xlorli eritmasi, fantom.

Bajarilish tartibi:

- 1.Bemorga dori moddasi va qilinadigan in'eksiya xaqida ma'lumot beriladi.
- 2.Undan in'eksiya qilish vaqtida to'siq bilan o'rash kerak-yo'qligini so'raladi (agar bemor xonada yolgiz bo'lmasa).
- 3.Qo'llar sovun bilan ilig' suvda yuviladi, quruq qilib artiladi va steril rezina qo'lqop kiyiladi.
- 4.Dori moddasi shpritsga tortiladi.
- 5.Bemorga qilinadigan in'eksiya uchun qulay vaziyatni egallashga yordam beriladi ("qorinda" yoki "yonbosh").
- 6.Ineksiya qilinadiganjoynibelgilang, qo'lqopnikeying.
- 7.In'eksiya qilinadiganjoynispirtgayokiyodganamlangan paxtasharchabilanarting.
- 8.In'eksiya qilinadiganjoyfiksatsiyaqilinadi.
- 9.Ignani 2-3mm teriustidaushlanib, 90⁰ostidamushakkakiritiladi.
- 10.Chap qo'lniporshengao'tqazibdorimoddasiyuboriladi.
- 11.Ignani odatdagidekchigariladi.
- 12.Paxtani teridanolmasdanturib in'eksiya qilingan joy sekin uqalanadi qo'lqoplar echiladi.
- 13.Bemorga qulayvaziyatniegallashigayordamberiladi.
- 14.To'siq olibqo'yiladi.

Eslatma:Ilitilganmoylieritmanikiritishdanoldin, porshenyuqorigatortiladi, qonchiqmasaginaeritmayuboriladi.

8.VENA ICHIGA IN'EKSIYA QILISH

Kerakli jixozlar: Iliq suv, sovun, steril salfetka yoki quruq sochiqlar, steril qo'lqoplar, bir martalik 5-10 ml li shprits, 70% li spirt eritmasi, yostig'cha, rezina jgut, steril paxta sharchalar, kleyonka, 0,5%li xlorli eritmasi.

Bajarilishtartibi:

1. Bemorga dori moddasini yuborish xaqida ma'lumot beriladi.
2. Shpritsga dori moddasi tortiladi.
3. Bemorga qulay vaziyatni egallashda yordam beriladi.
4. Bemorning tirsagi ostiga kleyonka yostig'cha qo'yiladi, qo'lqoplar kiyiladi.
5. Yelkaning o'rtaqismi rezina jgut bilan bog'lanadi, bunda bilak arteriyasidagi puls o'zgarishligi lozim. Jgutni shunday bog'lash kerakki, uning ikki uchi yuqoriga, xalqasi esa pastga yo'nalgan bo'ladi.
6. Bemordan kaftini bir necha marotaba bochish so'raladi, bir vaqtning o'zida tirsak bug'imini spirtga namlangan steril paxta bilan artiladi. Periferiyadan markazga xarakat qilib, tomirlar to'lig'lig'i aniqlaniladi.
7. Shprits olinadi, ko'rsatg'ich barmog' bilan igna kanyulasini, boshga barmog'lar bilan esa silindr yuqorisidan ushlaniladi.
8. Ignaning o'tkazuvchanligini va shpritsda xavo yo'g'lig'i tekshiriladi.
9. Chap qo'l bilan tirsak bukimidagi teri tortiladi.
10. Shprits holatini o'zgartirmasdan, igna kesimini yuqoriga va teriga parallel ushlab venaga kiritiladi.
11. Chap qo'l bilan venani aniqlagan xolda ignaning yo'nalishini nisbatan o'zgartirib bo'shliqqa tushganlikni xis qilguncha, asta-sekinlik bilan vena teshiladi.
12. Igna venada ekanligiga ishonch xosil qilinadi, porshen o'zimizga tortiladi (shpritsda qon xosil bo'lishi lozim).
13. Jgutni chap qo'l bilan bir uchidan tortib echiladi, bemordan mushtini ochish so'raladi.
14. Shprits xolatinio'zgartirmasdan chap qo'l bilan porshen bosiladi va dori asta-sekinlik bilan yuboriladi.
15. In'eksiya qilingan joy spirtga namlangan paxta sharchada bosilib igna chiqariladi.
16. Qon bilan ifloslangan paxta sharchalar olib tashlaniladi, qon tekkan joylar 0,5%li xlorli eritma bilan artiladi.
17. Qo'lqoplar yechiladi va ular 0,5%li xlorli eritmaga solinadi.
18. Qo'llar yuviladi va sochiq yoki salfetka bilan artiladi.

Eslatma: Venaga in'eksiya qilish uchun ko'proq to'lishgan venan itopish kerak. Agar shpritsda mayda xavo pufakchalari bo'lsa, uni silkitib, mayda pufakchalar katta pufakchaga aylantiriladi va uni ignadan chiqarib yuborish oson bo'ladi.

9. TAXLIL UCHUN VENADAN QON OLISH

KERAKLI JIXOZLAR: Suyuq sovun, bir martalik qog'oz salfetka, in'eksiya stoli, steril va nosteril lotok, yostikcha, jgut, steril probirka shtativi bilan, yo'llanma, 0,5% gipoxlorid natriy eritmasi, 70% etil spirti, 10 ml shprits, steril paxta sharcha, steril qo'lqop

BAJARISH ALGORITMI:

1. Bemorga muolaja maqsadini tushuntirib, qulay sharoit yaratiladi.
2. Qo'llar suyuq sovunda yuviladi, bir martalik qog'oz salfetskada quritiladi, steril qo'lqop kiyiladi.

3. Bemor o'rnida yotadi yoki stol yoniga o'tkaziladi.
4. Bemordan qo'llarini maksimal yozishni so'rab, tirsagi tagiga steril salfetkaga o'ralgan yostiqlar qo'yiladi.
5. Bemor yenglarini qayirib, yelkaning pastki 1/3 qismiga jgutni oson yechiladigan qilib bog'lanadi
6. Vena tomirlari yaxshi to'lishi uchun bemordan qo'llarini musht qilib ushlashi so'raladi (mushtini bir necha bor ochib yopishi mumkin emas, bu qondagi ayrim ko'rsatgichlarni o'zgarishiga sabab bo'ladi).
7. In'eksiya qilinadigan soxa avval kattaroq maydon, so'ngra kichikroq maydon spirtli steril paxta sharcha bilan markazdan periferiyaga qarab , aylana xarakatlar bilan 2 marta artiladi.
8. Chap qo'lning bosh barmig'i bilan teri biroz pastga tortib fiksatsiya qilinadi, o'ng qo'lda shpritsni olib 2 – barmoq bilan ignani muftasidan, qolgan barmoqlar shprits silindrida teng taqsimlab ushlanadi.
9. Igna bilan bir vaqtning o'zida teri va vena devorlarini teshiladi va chap qo'l bilan ignani muftasidan bosib turib, o'ng qo'lda porshen orqaga tortiladi, shpritsda qon paydo bo'lishi vena tomirida ekanligimizdan dalolat beradi.
10. Jgutni yechmasdan turib 3 -5 ml xajmidagi qonni shpritsga tortiladi.
so'ngra jgut asta - sekin yechiladi .
10. Chap qo'l bilan spirtli steril paxta sharchani qo'yib, ignani muftasidan ushlab tortib olinadi va qo'llar tirsak bo'g'imida bukiladi.
11. Shpritsdagi qon probirkaga, devori bo'ylab asta – sekin ko'pirtirmasdan solinadi.
12. Shprits va ignazararsizlantirilib, utilizatsiya qilinadi.
13. Probirka va yo'llanma raqamlanib, laboratoriyaga jo'natiladi.
14. Qo'llar yuviladi va quritila

10.UMUMIY TAXLIL UChUN NAJAS YIG'ISH.

KERAKLI JIXOZLAR: Suyuq sovun, bir martalik qog'oz salfetka, toza, quruq shisha idish, laboratoriyaga yo'llanma, sudn,0,5% gipoxlorid natriy eritmasi, toza qo'lqoplar.

BAJARISH ALGORITMI:

1. Bemorga muolaja maqsadi tushuntiriladi.
2. Yo'llanma yozib, toza, quruq shisha idishga yopishtiriladi.
3. Ertalab, bemoruykudanturgach, sudnoga o'tiradi.
4. Qo'lkoplarkiyilib, defekatsiya aktidan so'ngaxlat ko'zdankechiriladi.
5. Ozrok mikdorda (5-10 gr) axlatni yog'och kurakcha yordamida shisha idishga solinadi va laboratoriyaga yuborilguncha salqin joyda (xojatxonaning kafelli poli ustida) saqlanadi.
6. Yog'och kurakcha yoqibyuboriladi.
7. Qo'lqoplar yechiladi va zararsizlantiriladi.
8. 10.Axlat laboratoriyagailojiboricha iliqligidayuboriladi.
9. Qo'llar yuviladi va quritiladi.

ESLATMA: Axlat yig'ilgan shisha idishda suv va siydik qoldiqlari bo'lmasligi kerak.

11. QUSAYOTGAN BEMORLARGA YoRDAM BERISH.

KERAKLI JIXOZLAR: Suyuq sovun, bir martalik qog'oz salfetka, lotok, tog'ora, suv, sochiq, kleyonka fartuk 0,5% gipoxlorid natriy eritmasi, furatsillin yoki 2% gidrokarbonat eritmasi

BAJARISH ALGORITMI:

1. Qo'llar yuviladi va quritiladi.
2. Bemorga muolaja maqsadi tushuntiriladi
3. Bemorni qulay xolatda o'tqaziladi.
4. Bo'yni va ko'kragi aralash kleyonka fartuk yoki sochiq solinadi.
5. Og'ziga yaqin qilib lotok qo'yiladi
6. Tish protezlari olib qo'yiladi
7. Darmonsiz, o'tirish mumkin bo'lmagan bemorlarning boshi tanasidan bir oz pastga engashtiriladi va bemor og'ziga lotokni yaqin qo'yib turiladi, ko'kragiga sochik yoziladi.
8. Qayt qilib bo'lgandan so'ng bemor og'zini iliq suv bilan chaydiriladi, lablari, og'iz burchaklari artiladi
9. Darmonsiz bemorlarning og'iz bo'shlig'i oddiy suv yoki zararsizlantiruvchi (furatsillin, 2% gidrokarbonat) eritmasi shimdirilgan paxta bilan artiladi.
10. Ishlatilgan jijozlar zararsizlantiriladi.
11. Qo'llar yuviladi va quritiladi

BOLALARDA DORI YuBORISH TEXNIKASI.

KERAKLI JIXOZLAR: Suyuq sovun, bir martalik qog'oz salfetka, 5-10 ml shprints, kerakli bo'lgan dori vositalari, steril lotok, yostiqcha, jgut, 0,5% gipoxlorid natriy eritmasi, 70⁰ etil spirti, steril paxta sharcha, steril qo'lqop.

BEMORNING XOLATI: chalqancha yotgan xolda

BAJARISH ALGORITMI:

1. Bemorning ota-onasiga muolaja maqsadini tushuntirib, roziligi olinadi va qulay sharoit yaratiladi.
2. Qo'llar suyuq sovunda yuviladi, bir martalik qog'oz salfetkada quritiladi, steril qo'lqop kiyiladi.
3. Kerakli bo'lgan flakon yoki ampula olinadi, saqlanish muddati, butunligi, rangi germetik yopilganligiga e'tibor beramiz.
4. Bemordan qo'llarini maksimal yozib, tirsagi tagiga steril salfetkaga o'ralgan yostiqcha qo'yiladi.
5. Yelkaning pastki 1/3 qismiga jgutni oson va tez yechiladigan qilib bog'lanadi.
6. In'eksiya qilinadigan soxa avval kattaroq maydon, so'ngra kichikroq maydon spirtli steril paxta sharcha bilan markazdan periferiyaga qarab, aylana xarakatlar bilan 76⁰ stirtga xo'llangan paxtali sharcha bilan artiladi.

